Veygu hali oila qurmagan, shu sababdan cholning shunday sehrli qobiliyatlarini borligini eshitib, kelajakda kim uning xotini bo‘lishini aytib berish umidida choldan qayta-qayta savollar so‘rayveribdi. “Sening kelajakdagagi ayoling hozirda endi uch yoshga kirgan, u o‘n to‘rt yildan so‘ng turmushga chiqadi”, debdi chol. “U karvonsaroyning shimolida joylashgan sabzavot do‘konidagi ayolning qizi” deya qo‘sishimcha qilibdi qariya. Veygu qariyaning aytganlariga ishonmabdi. Qariya u bilan hazillashyapti shekilli deb o‘ylabdi. Birozdan so‘ng, qariya kitob va qopni olib, Veygu bilan birga shimolga qarab yuribdi. Guruch bozoriga yetganda Veygu bir ayolga ko‘zi tushdi. Qariya esa,

“bu ayolning qizi kelajakda sening turmush o‘rtog‘ing bo‘ladi” debdi.

Veygu ayolga sinchiklab qaray boshlabdi. Ayol va uning qizalog‘i juda ham xarob holatda kiyinishgan edi. Veygu o‘sha paytda hali yosh edi va mag‘rur bola edi. Bu qiz qanday qilib mening ayolim bo‘lishi mumkin deb o‘ylay boshlabdi. G‘azablanib, karvonsaroya qaytib kelibdi va xizmatkorlariga kichkina qizni o‘ldirishni buyuribdi. Xizmatkor juda qo‘rroq edi, lekin xo‘jayinning buyrug‘iga bo‘ysunmaslikka jur’at eta olmabdi. Ayol bilan qizchani topib, qizchanining qoshlari orasiga pichoq sanchibdi. Hizmatkor uni pichoqlab o‘ldirdim, deb o‘ylab qochib ketibdi. Veygu xizmatkor qizni o‘ldirganini eshitganidan so‘ng, xizmatkori bilan Songchengni tark etibdi.

Ko‘z ochib yumguncha oradan o‘n to‘rt yil ham bir zumda o‘tib ketibdi. Veygu va nihoyat ko‘nglidagi insonini topib oila quribdi. Uning rafiqasi Syanchjou gubernatori Vantayaning ko‘z qorachig‘i, qizi ekan. Veygu esa Vantay boshqaruvida kichik amaldor edi. Ko‘plab da‘vogarlar orasida Vantay sinovlardan so‘ng, nihoyat Veyguni tanlab olibdi. Veyguning ayoli juda ham go‘zal ediyu, lekin qoshining orasida chandiq‘i bor edi. Bir kuni Veygu qaynotasidan qiziga nima bo‘lganini so‘rabdi.

Vantay bu qiz uning haqiqiy qizi emas, balki boqib olganligini aytibdi. Uning haqiqiy otasi Songchengda ancha yillar oldin vafot etganini, otasidan ayrilganda qiz bir yoshda bo‘lganini, oradan ko‘p o‘tmay onasi ham halok bo‘lganini aytibdi. Vantay o‘sha mahallarda qizni asrab olgan ekan. Chandiq haqida gap kelganda esa, Vantay o‘n to‘rt yil oldin qizim onasi bilan Songchengdagi paytida bir yovuz odam kelib, pichoq sanchib ketganini, baxtiga qizi omon qolganini aytib beribdi.

Voqeani eshitgan Veygu hayratdan nima deyishini ham bilmay qolibdi, “Nahotki mening ayolim o‘n to‘rt yil oldin o‘ldirmoqchi bo‘lgan o‘sha qizaloq bo‘lsa,” deb o‘ylay boshlabdi. Hayajonlanganidan, o‘sha ayol sabzavot sotar edimi deb so‘rabdi. Ha, to‘g‘ri sen buni qayerdan bilasan deb Vangtaydan

so‘rabdi. Biroz o‘z sukunatdan keyin, Veygu bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Butun oila buni eshitib hayratdan qotib qolishibdi.

Veygu shunda qariya hazillashmaganini anglab yetibdi. Er-xotin turmushlarini asrashga, endi baxtli yashashga qaror qilishibdi. Vantay karvonsaroyni sotib olib uni “Hayot karvonsaroyi” deb nomlabdi.

Veyguning hikoyasidan so‘ng, odamlar boyagi qariyani “Oyning qariyasi” yoki “Oy nuri ostidagi qariya” deb atay boshlashibdi.

## 孟姜女哭长城

秦朝的时候，有个美丽善良的女子名叫孟姜女。一天，她正在自家的院子里做家务，突然发现葡萄架下藏着一个人，她吓了一大跳，正要叫喊。只见那个人连连摆手，恳求道：“别喊，别喊，救救我吧！我叫范喜良，是来逃难的。”原来，秦始皇为了修筑长城，正到处抓人做劳工，已经饿死、累死了不知多少人！

孟姜女把范喜良救了下来，见他知书达礼、眉清目秀，便对她产生了爱慕之情，而范喜良也喜欢上了孟姜女。她俩心心相印，征得了父母的同意后准备结为夫妇。

成亲那天，孟家张灯结彩、宾客满堂，一派喜气洋洋的景象。眼看天快黑了，喝喜酒的人也都渐渐散了，新郎新娘正要入洞房，忽然，院子里鸡飞狗跳，随后闯进来一队恶狠狠的官兵。他们不由分说，用铁链将新郎一锁，硬把范喜良抓到长城去做工了。好端端的喜事被搅和了，孟姜女悲愤交加，日夜思念丈夫。她想：“我与其坐在家里干着急，还不如自己到长城去找他。对！就这么办！”孟姜女立刻收拾行装上路了。

一路上，孟姜女不知经历了多少风霜雨雪，走了多少险山恶水，但她没有喊过一声苦，没有掉过一滴泪。终于，凭着顽强的毅力，凭着对丈夫深深的爱，她来到了长城脚下。这时的长城已经是由一个个工地组成的一道很长很长的城墙了。

孟姜女一个工地一个工地地找过去，却始终不见丈夫的踪影。最后，她鼓起勇气，向两个正要上工的劳工询问：“你们这儿有个叫范喜良的人吗？”劳工说：“有这么个人，新来的。”孟姜女一听，甭提有多开心了！

她连忙再问：“他在哪儿呢？”劳工说：“已经死了，尸首都已经填了墙脚了！”这个噩耗，好似晴天霹雳一般，孟姜女只觉得眼前一黑，一阵心酸，大哭起来。

她哭了整整三天三夜，哭得天昏地暗，连天地都被她感动了。天越来越阴沉，风越来越猛烈，只听“哗啦”一声，一段长城被哭倒了，露出来的正是范喜良的尸首。孟姜女的眼泪滴在了范喜良血肉模糊的脸上。她终于见到了自己心爱的丈夫，但范喜良再也看不到他的妻子了。

## Meng Jiangnuning Buyuk Xitoy devoridagi nolasi

Chying sulolası davrida Meng Jiangnu ismli go'zal va mehribon ayol bo'lgan ekan. Bir kuni u hovlisida uy yumushlari bilan shug'ullanayotgan paytda, to'satdan uzumzorda yashirinib olgan odamni ko'rib qolibdi. Shu payt u qo'rqib ketib, baqirmoqchi bo'libdi. Lekin ayol xaligi odamning qo'llarini qayta-qayta silkitib yolvorib debdi: "Iltimos, baqirma, meni qutqar! Mening ismim Fan Siliang, men qochoqman." Ma'lum bo'lishicha, Ching Shihuang Buyuk Xitoy devorini qayta ta'mirlash uchun oddiy xalqdan ishchilar yollayotgan ekan. Lekin ko'pchilik ochlikdan va charchoqdan o'lib ketishayotgan ekan.

Meng Jiangnu Fan Siliangni qutqarib qolibdi. Uning yaxshi odam ekanini, o'qimishli va odobli ekanini, xush suratlari ekanligini ko'rib, bir ko'rishdayoq uni sevib qolibdi. Fan Siliang ham Meng Jiangnuga oshiq bo'lib qolibdi. Ular ota-onalarining roziliklarini olib, turmush qurishga ahd qilibdilar.

To'y kuni Meng oilasi uyni turli chiroqlar bilan bezatibdilar. Uylari mehmonlar bilan to'lib toshibdi. Qorong'i tushgach, to'yga kelgan mehmonlar ham asta-sekin tarqala boshlashibdi. Jumladan kelin-kuyov ham uylariga qaytayotganlarida, birdan hovlida g'ala-g'ovur tovush ko'tarilib, bir guruh askarlar bostirib kirishibdi. Ular hech qanday izohlarsiz, kuyovni qo'llarini zanjirband qilishibdi va Fan Siliangni Buyuk devor ustida ishslash uchun majburlab olib ketishibdi. Shodiyona kun motamga aylanibdi. Meng Jiangnu chuqur qayg'u va iztirobga botibdi. Shu kundan boshlab u o'z yorini kechayu-

kunduz sog‘inar ekan. “Uyda o‘tirib, g‘amga botgandan ko‘ra uni topish uchun Buyuk devorga borganim yaxshi. To‘g‘ri! Huddi shunday ham qilaman”, -debdibi Meng Jiangnu darhol kerakli narsalarini yig‘ib, yo‘lga otlanibdi.

Yo‘lda Meng Jiangnu qanchadan-qancha shamollar, ayozlar, yomg‘ir va qorlarni boshidan o‘tkazibdi. Ko‘plab xavfli tog‘larni va daryolarni bosib o‘tsada, lekin nola qilib bir tomchi ham ko‘z yoshini to‘kmabdi. Nihoyat, qat’iyatlilik va eriga bo‘lgan cheksiz muhabbat uni Buyuk Xitoy devoriga yetaklab olib kelibdi. Bu vaqtda Buyuk devor allaqachon qurilish maydonchalaridan tashkil topgan juda uzun shahar devoir tusini olgan edi.

Meng Jiangnu qurilish bo‘layotgan maydongacha yetib boribdi, lekin erining soyasini ham uchratmabdi. U bor jasoratini to‘plab, ishga ketmoqchi bo‘lib turgan ikki ishchidan so‘rabdi: “Bu yerda Fan Siliang degan odam bormi?”. “Shunaqa ismli yangi kelgan ishchi bor edi”, - deya javob berishibdi ishchilar. Buni eshitgan Meng Jiangnuning ko‘ngli ancha yorishibdi. “U hozir qayerda?” - deya yana so‘rabdi. “U allaqachon vafot etdi, tanasini esa devor tagiga ko‘mib yuborishdi”, -deya javob beribdi ishchilardan biri. Bu qayg‘uli xabardan moviy osmonda chaqmoq chaqqandek bo‘libdi. Men Jiangnuning ko‘z oldi qorog‘ulashib, yuragi alamga to‘libdi va shu zahotiyiq ho‘ngrab yig‘lab yuboribdi.

U uch kechayu, uch kunduz faryod chekibdi. Hatto tabiat ham uning qayg‘usidan ta’sirlanibdi. Osmon tobora xiralashib, shamol tobora kuchayib boribdi. Shu payt birdan “gumbur” etib Buyuk Xitoy devorning bir qismi qulab tushibdi. Buni qarangki, shu yerda Fan Siliangning jasadi ko‘rinibdi. Meng Jiangnuning ko‘z yoshlari Fan Siliangning qonga belangan yuziga tushibdi. U va nihoyat sevikli yorini ko‘ribdi, lekin Fan Siliang esa o‘z yorini ko‘rolmay bu dunyodan ketgan edi.



## **第三部分 乌兹别克斯坦民间故事**

**Uchinchi bo‘lim: O‘zbek xalq ertaklari**

## Shahzoda Salmon

Qadim zamonda, Xorazm eli tomonda bir podsho bo‘lgan ekan. Uning bir emas, to‘rt azamat o‘g‘li bor ekak. To‘rttalasi ham ot chopishda, o‘q otishda, qilich urishda bir-biridan qolishmas ekan. Salmon podshoning boshqa o‘g‘illaridan aqlli chiqqan ekan.

Podshoning uch katta o‘g‘li bir kun o‘zaro maslahat qilishib, vazirning oldiga borishibdi va:

- Bizning yoshimiz ulg‘ayib qoldi, o‘zimiz podshoniig o‘g‘illari bo‘lsak, otamiz bizni hali-beri uylantirmoqchi emasga o‘xshaydi. Otamizga o‘zimiz ayta olmaymiz; bir oldilaridan o‘tib bersangiz, - deb iltimos qilishibdi.

Vazir shahzodalarining so‘zini podshoga borib aytibdi. Podsho o‘g‘illarini oldiga chaqirtirib:

- O‘g‘illarim, davlat ishi bilan bo‘lib, sizlarni uylantirolmadim. Qani aytinlar, kimning qizini olib beray? – deb so‘rabdi. Shunda katta shahzoda o‘rnidan turib:

- Otajon biz to‘rt og‘a-inimiz. Biroq Salmon hali yosh, u hozircha uylanmasa ham bo‘ladi. Agar bizga xotin olib bermoqchi bo‘lsangiz, uch og‘a-inimiz, bizga uch opa-singil olib bersangiz, - debdi. Podshoga bu so‘z ma’qul tushib, yurtgasovchilarini chiqaribdi. Sovchilar hammayoqni qidirib, uch opa-singilli joyni topolmabdilar. Shunda podshosovchilarini qo‘shti yurtga yuboribdi. Sovchilar qo‘shti yurt podshosining uch qizi bor ekan, degan darakni eshitib, o‘sha podshoning oldiga boribdilar-da:

- Podshohim, yurtimiz podshosining uch o‘g‘li bor, sizning uch qizingizni

olish uchun sovchilikka keldik, - debdilar.

Bu yurtning podshosi rozi bo‘libdi. Sovchilar shod-xurram bo‘lib, yurtlariga qaytibdilar-da, podshodan suyunchi olibdilar.

Podsho ham g‘oyat xursand bo‘lib:

- O‘g‘illarim bilan o‘zim borib, to‘y qilib, kelinlarimni olib kelaman, - deb hozirlik ko‘rishni buyuribdi. Qirqta tuyaga mol-dunyo yuklab, yo‘lga chiqishga shay bo‘libdilar. Podsho maslahat qilib kenja o‘g‘li Salmonni o‘z o‘rniga taxtga o‘tkazib ketibdi. Salmon otasiga:

- Otajon, men bu yerda qolaman, lekin sizdan ikkita iltimosim bor. Biri: mana bu pichog‘imni belingizga taqib oling, meni esdan chiqarmaysiz, ikkinchisi: yo‘lingizda Xarasmon degan tog‘ bor, shu tog‘ning tagida ajoyib gulzor bog‘ bor. Zinhor bu boqqa kirmang, - debdi.

Otasi kenja o‘g‘lining shartlariga ko‘nibdi-da, lom-lashkari bilan yo‘lga tushibdi. Ko‘p yo‘l yurishibdi, dasht-sahrolarni bosib o‘tib, kelinlarining yurtiga omon-eson yetib borishibdi. U yurtning podshosi qudasini, kuyovlarini dabdaba bilan qarshi olibdi. To‘y-tomosha boshlanib ketibdi. Qirq kecha, qirq kunduz to‘y davom etibdi.

Podsho kelinlarini olib, o‘z yurtiga qaytibdi. Yo‘lda kelayotganlarida bir tog‘ning etagida chiroyli bir bog‘ ko‘rinibdi. Shahzodalar bir-ikki kun shu yerda qolib dam olamiz, deyishibdi. Podsho, kenja o‘g‘lining sharti esida turgan ekan, ko‘nmabdi. Shahzodalar: “Otamiz qarib qolibdi, kichkina bolaning so‘ziga kirib yuribdi-ya”, debdilar-da, otalarining so‘ziga qulq solmay, boqqa kirishibdi. Podsho ham noiloj ularning orqasidan boqqa kiribdi. Kirgan zamon gumbur-gumbur ovozlar eshitilib bog‘ning atrofida toshdan qilingan baland devorlar paydo bo‘libdi. Shu vaqt og‘zidan o‘t-tutun sochib bahaybat bir ajdaho yetib kelibdi. Ajdaho podshoga qarab:

Bu boqqa qadam qo‘ysin, deb senga kim ijozat berdi? - deb pishqiribdi.

Podsho:

- Nima kerak bo'lsa, ol, lekin bizni nobud qilma, - deb yalinibdi. Shunda ajdaho:

- Qutulishning bir yo'li bor, agar shahzoda Salmonni menga bersang, yaxshi, bermasang, hozir hammangni komimga tortaman, - deb og'zidan o't socha boshlabdi. Podsho qo'rqqanidan ajdahoning shartiga ko'nibdi. Ajdaho bir pishqirgan ekan, haligi bog'ning devorlari birpasda yo'l bo'libdi, Podsho omon-eson o'z yurtiga yetib kelibdi. Qarasa, shahzoda Salmon yo'q emish. Qidirtirib, kenja o'g'lini hech qayerdan topolmabdi. Qayerga ketganini hech kim bilmabdi. Shahzoda Salmonni allaqachon ajdaho olib ketgan ekan. Podsho ko'p xafa bo'libdi, katta shahzodalarni koyibdi. Kecha-kunduz dard chekib, oxiri kasal bo'lib yotib qolibdi.

Endi so'zni shaxzoda Salmon dan eshititing:

Ajdaho shahzodani olib borib, qo'l-oyog'iga zanjir solib qo'yibdi.

Shaxzoda:

- Yo meni o'ldir, yo bo'lmasa qo'yib yubor! - deb turib olibdi.

- Men seni qo'yib yuboraman, lekin bir og'iz shartim bor, - debdi shunda ajdarho.

- Shartingni ayt, - debdi shahzoda.

- Borsa-kelmas, degan yurt podshosining Mohro' degan bir chiroyli qizi bor. Mening bilishimcha, shu qizni faqat sen qo'lga tushira olasan. Qizni keltirib bersang, shu kunning o'zida seni ozod qilaman, - debdi ajdaho. Shahzoda Salmon ajdarning shartiga ko'nibdi.

Shahzoda Salmon yo'l yarog'larini shaylab, jo'nab ketibdi. Yo'lda borayotgan ekan, qarshisidan bir nuroniyl chol chiqibdi, Shahzoda salom beribdi. Chol alik olib:

- Ha, o'g'lim, yo'l bo'lsin? - deb so'rabdi. Shahzoda bo'lgan voqealarni bir-bir gapirib beribdi. Shunda chol:

- Bolam, boshingga ko'p mushkul ish tushibdi, Lekin sen qo'rqma.

“Qidirgan topadi” deganlar. Sen shu yo‘ldan ketaverasan, yo‘lingda uchta pari uchraydi. Shu parilar senga yordam berishadi. U parilarga mendan salom aytib qo‘ygin, - debdi-da, xayrlashib ketaveribdi.

Shahzoda yo‘lga tushibdi. Tog‘-cho‘llarni oshib bir parini uchratibdi. Pari uning kimligini so‘rabdi. Shahzoda bo‘lgan gapni aytib, cholning salomini yetkazibdi. Pari;

- Bundan uch manzil narida mening singlim Sumbul pari turadi. Shu senga yo‘l ko‘rsatar, - deb bir tola sochini shahzodaga beribdi. Shahzoda yurib-yurib, Sumbul parining makoniga yetibdi. Shahzoda unga ham boshidan kechirganlarini so‘zlab beribdi. Sumbul pari ham bir tola sochini olib shahzodaga tutqazibdi-da:

- Bundan besh manzil narida Kumush pari degan bizning onamiz turadi. Shunga borib arz qilsang, senga madad beradi, - deb shahzodani yo‘lga solib yuboribdi. Shahzoda bir qancha yo‘llarni bosib, Kumush parining makoniga yetib borib, salom beribdi. Kumush pari alik olib:

- Hoy, inson bolasi, bu parilarning yurtida nima qilib yuribsan? – deb so‘rabdi. Shahzoda boshidan o‘tganlarini ham so‘zlab beribdi. Kumush pari ham bir tola sochini yulib shahzodaga beribdi:

- Borsa-kelmas yurtiga yaqinlashib qolding. Sen yo‘lga tushib ketaver, agar biror qiyinchilikka uchrasang, ana shu sochni kuydir, darrov ko‘makka yetib boramiz, - debdi.

Shahzoda yana yo‘lga tushibdi. Ming azob-uqubatlar bilan cho‘llarni, qum sahrolarni bosib, Borsa-kelmas yurtiga yetibdi. Shu yurtdagi bir kampirning uyiga kirib boribdi. Kampir uni o‘ziga o‘g‘il qilib olibdi.

Kech tushganda, kampir eshiklarni bekitib, tambalab qo‘yibdi. Shahzoda buning sababini so‘rabdi. Kampir:

- Bolam, bu shahar podshosining bir qizi bor. Kechqurunlari kanizlari bilan kajavaga tushib shaharni aylanadi. Shu vaqtida hech kim ko‘chada qizga

uchramasligi kerak. Uchragan odamni qiz dorga ostiradi. Qanchadan-qancha odamlar qizni olaman, deb unga yo‘liqib ko‘rdilar, lekin qizning shartlarini bajarolmay bekorga o‘lib ketdilar, - debdi.

- Qizning sharti qanday ekan? - deb so‘rabdi shahzoda.

- Uning uchta og‘ir sharti bor, - debdi kampir, - birinchisi bir qop yungni bir urganda yerga kirgizib yuborish, ikkinchisi: o‘n botmon tariqni bir tanob yerga sepib, tuproq bilan aralashtirish va shuni bitta qo‘ymay terib berish, uchinchisi: uch xonali uyni qizdiradigan o‘tinni bir filga ortib, to‘qaydan keltirish. Uyning toshlari o‘t bo‘lib ketgunga qadar qizdirib, o‘rtadagi uyda, bir kecha-kunduzgacha chiqmay yotish. Shu shartlardan birortasi bajarilmasa, qizniig otasi u odamni darrov o‘limga buyuradi.

Ertasi kuni kechqurun shahzoda Salmon kampirning “hay-hay” deganiga qaramay, ko‘chaga chiqib, qizni kutib turibdi. Kanizlari bilan kelayotgan qiz shahzodani ko‘rib, unga oshiq-beqaror bo‘libdi. Shahzoda Salmon ham qizning jamolini ko‘rib es-xushini yo‘qotib qo‘yibdi. Qiz yigitdan uning kimligini so‘rabdi. Shahzoda o‘zining kimligini Mohro‘ga gapirib beribdi, Mohro‘:

- Endi men seni qanday qilib o‘limdan qutqaraman? – deb ko‘p qayg‘uribdi. Shahzoda unga tasalli berib:

- Sen qayg‘urma, shartningni e’lon qilaver, xudo xohlasa, hammasini bajaraman, - debdi.

Ertasi kuni podsho jar chaqirtiribdi. Jarchilar: “Shunday-shunday, podshoning qizini falon yigit olaman deb kelibdi. Bugun yigit shartlarni bajarmoqchi”, deb shaharni aylanib chiqibdi.

Odamlar yig‘ilibdi. Qiz o‘z ko‘shkida tomosha qilib o‘tiribdi. Maydonga bir qop yungni keltiribdilar. Shahzoda parilarning yordami bilan haligi yungni bir urib yerga kirgizib yuboribdi.

Keyin o‘n botmon tariqni keltirib, bir tanob yerdagi tuproq bilan aralashtirib yuboribdilar. Shu zamonoq son-sanoqsiz chumolilar paydo

bo‘lib, birpasda tariqni bitta qo‘ymay yig‘ib beribdilar. Uchinchi shartni ham parilarning yordami bilan bajaribdi. To‘qaydan filga ortib keltirilgan o‘tinni uch xonaga yoqibdilar. Uy rosa qizibdi. O‘rtancha uyga parilar suv to‘ldirib qo‘yibdilar. Shahzoda bir kecha-kunduzgacha shu uyda bemalol o‘tiribdi.

Butun shartlar bajarilgandan keyin podsho noiloj to‘y-tomosha qilib Mohro‘ni shahzoda Salmonga beribdi. Opa-singil parilar shahzoda bilan Mohro‘ni bir zumda o‘z onalari oldiga olib kelibdilar. Kumush pari xursand bo‘lib, ularni ziyofat qilibdi-da:

- Ajdaho seni kutib o‘tiribdi. U sendan qizni tortib oladi. Hech maxluq unga bas kelolmaydi. Undan qutulishning bir yo‘li bor. Yana o‘n besh kundan keyin ajdaho qirq kunlik uyquga ketadi... Shu vaqtida sen uning boshiga qilich urasan, baxting bo‘lsa, o‘ldirib, yurtingga qaytasan, - deb maslahat beribdi. Shundan keyin parilar shahzoda bilan Mohro‘ni olib, ajdaho turgan boqqa olib borib qo‘yibdilar. Ajdaho xursand bo‘lib:

- Men senga va‘da bergen edim, endi o‘z yurtingga ketaver, - deb javob beribdi.

Shahzoda Salmon xursand bo‘lganday bog‘dan chiqib ketibdi. Ajdaho qizni zindonga solibdi-da, o‘zi qirq kunlik uyquga ketibdi. Shahzoda parilar yordamida qirq gaz keladigan bog‘ devoridan tushib, ajdar yotgan yerga boribdi. Qarasa, ajdaho uxlab yotgan emish. Shahzoda Salmon qilichini yalang‘ochlab ajdarhoning boshiga qayta-qayta solibdi. Ajdarning boshi bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketibdi. Odam bolasi maqsadiga yetibdi, el-yurt ajdaho balosidan qutulibdi.

Shahzoda Salmon Mohro‘ni zindondan qutqarib, omon-eson o‘z yurtiga yetib boribdi. Otasi o‘lim to‘shagida yotgan ekan. Shahzodani ko‘rib, o‘zida yo‘q suyunibdi.

- Darrov yurtga to‘y berilsin! - deb buyruq beribdi. Yana qirq kecha-qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, murod-maqsadlariga yetibdilar.

## 萨利曼王子

很久以前，在花剌子模汗国有一个国王，他有四个王子。王子们擅长骑射和剑术，非常勇敢。其中，名叫萨利曼的小王子尤其聪明。

有一天，国王的三个王子商量好，一起来到大臣面前，请求道：“我们是王子，现在也长大了，可是，父王看样子还不想让我们结婚，我们又不好开口，请您帮我们给父王说一声吧。”

大臣把王子们的话转告了国王。于是，国王把三个儿子叫到身边，问道：“儿子们呀，我忙于国事，没有顾上考虑你们的婚事，你们说吧，想娶谁的女儿呢？”

这时大王子站起来对父亲说：“尊敬的父王，我们是四兄弟，但是萨利曼还小，可以不结婚。如果您给我们娶媳妇，那就给我们三兄弟娶三姐妹吧！”国王应允了他们的要求，并派媒婆到国内各个城市寻找。媒婆跑了很多地方也没有找到有三姐妹的家庭。国王把媒婆派到邻国去了。媒婆听说这个国家的国王确实有三个女儿，就觐见了国王，说：“尊敬的陛下，我们国王有三个王子，专门派我来给他们做媒。”

邻国国王应允了婚事。媒婆兴高采烈地回到自己的国家，向国王领赏。国王万分欣喜地说：“我会带着三个儿子一起去办婚礼，然后把儿媳妇们带回来。”于是，国王下令准备彩礼。他把装有金银珠宝的彩礼放在四十只骆驼上准备出发。国王启程前经过商议，让小儿子萨利曼临时接管了自己的王位。萨利曼对父亲说：“尊敬的父王，我可以留下来，但是我有两个请求。第一，请您将这把刀带在身边，这样您不会忘记我。第二，在旅途中有一座叫哈拉斯满的山，那山下有一座美丽而神奇的花园，但是

请父王千万不要进花园。”

国王答应了萨利曼的请求，带着三个王子和士兵们出发了。他们走了漫长的路，穿过浩瀚的沙漠，最后平安地来到了邻国。邻国国王隆重地接待了亲家和女婿。婚礼举行了四十个日夜。

国王带着儿子和儿媳妇们启程回国了。返程途中，他们远远地就看到一座山下有一座风景优美的花园。王子们都想在这里待一两天休息一下。国王想起了小儿子萨利曼的劝告，不想在这儿逗留。这时，三个王子露出不满，说道：“父王老了，居然信小孩儿的话。”他们不听父王的劝阻，进了花园。于是，国王也无奈跟着三个王子进去了。大家进花园的一刹那，花园里就传来轰隆隆的声音，花园周围马上出现了石头围墙。这时，突然出现了一条口吐火焰的蟒龙。蟒龙打着响鼻，盯着国王说：“是谁允许你们进入这个花园的？”国王哀求道：“你要什么，都给你，请不要伤害我们。”蟒龙回答道：“想逃生只有一个办法，把你的儿子萨利曼交给我，要不然，我把你们全部活活地吞掉。”说着就从嘴里喷出火来。国王非常害怕，只好同意了蟒龙提出的要求。蟒龙打了一个响鼻，花园的石头围墙一下子就变成了道路，国王便顺着这条路平安地抵达了自己的国家。国王到皇宫后发现儿子萨利曼不在了，谁都不知道他的去向。原来，萨利曼王子被蟒龙夺走了。国王非常难过，责备了三个儿子。他日日夜夜怀着悲伤思念萨利曼，最终病倒了。

现在，我们讲讲萨利曼王子的故事吧。

蟒龙把王子夺走后，用铁链把他的手脚都绑起来了。萨利曼王子毫不畏惧地对蟒龙说：“要么把我杀了，要么把我放了！”

蟒龙说道：“我可以放了你，但是有个条件。”

“说说你的条件吧。”王子说。

“听说在一个叫做有去无回的国家，那里的国王有一位美丽的公主名叫玛赫柔。据我所知，只有你才能得到她，如果你能把她带来，我立刻就给你自由。”蟒龙说。萨利曼王子答应了蟒龙的要求。

萨利曼王子朝着那个国家踏上了征途。在路上，萨利曼遇见了一位老

人，王子向他行礼表示问候，老人回礼后，问王子道：“小伙子，祝你一路平安，但是，你要去哪里呀？”王子就把发生的事情一五一十地告诉了老人。老人同情地说：“孩子，你受了不少苦呀。但是不要害怕，俗话说，‘有所求，就有所得’。你就沿着这条路放心地往前走，在路上你会遇到三位仙女，她们会帮你的。还有，你顺便代我问候她们。”说完，就告别了王子。

王子继续往前走了。越过高山沙漠，他遇见了第一位仙女。仙女问他他是谁，王子就把发生的一切告诉了仙女，并转达了老人的问候。仙女说：“离这儿有三天路程的地方住着我的妹妹苏姆布丽仙女，她会给你指路的。”说着把一根头发交给了王子。王子走啊，走啊，终于来到了苏姆布丽仙女的住处。王子又对她说事情的经过。苏姆布丽仙女也把自己的一根头发交给王子，说道：“离这儿有五天路程的地方住着我们的母亲库姆西仙女，你可以向她哭诉，她会帮助你的。”说完，就给王子送行了。

王子经过漫长的路途，来到了库姆西仙女的住处。王子向她行礼表示问候，库姆西仙女回礼后，问道：“喂，人类之子，你来仙女的住处干什么？”王子又把事情的经过都说给库姆西仙女听。库姆西仙女也揪下一根头发交给王子说：“你快到有去无回国了。你继续走吧，当你遇到困难，你就把那些头发烧掉，我们就会出现在你的面前帮助你。”

王子又启程了。他历经万般磨难，穿过沙漠戈壁，终于到达了有去无回国了。王子在当地一位老太太家里借宿，老太太认他当儿子了。

夜幕降临，老太太关上门，还上了锁。王子问老太太原因，她说：“孩子，我们的国王有一个女儿，每天晚上，她和宫女们坐在车上游街。这个时候，谁都不能在街上碰见她。碰见她的人都要被绞死。多少人为了娶她，跟她见面，可是都因为满足不了姑娘的要求，白白死了。”

“姑娘有什么要求啊？”王子追问。

老太太慢慢说道：“听说她有三个要求，第一个是，要把一袋羊毛一下

子打入地里；第二个是，把十巴特曼<sup>①</sup> 黄米一下子撒在地上，混进土里，然后一粒不剩地收起来；第三个是，把能够暖和三个房间的木柴驮在大象身上，穿过灌木林带过来，然后，用柴火把石头房子烤得像炭火一样灼热，在中间的屋子里待一天一夜。如果做不到其中的任何一个要求，姑娘的父亲将会立刻处死碰到她的那个人。”

第二天晚上，萨利曼王子不听老太太的再三劝阻，执意到街上等待国王女儿的出现。果然，国王的女儿和宫女们走来了，姑娘对王子一见钟情。王子见到姑娘的美貌也忘乎所以了。公主询问小伙子是谁，王子告诉了她所有的情况。玛赫柔公主非常伤心地问：“那我现在怎样才能救您呀？”王子安慰她说：“别伤心，宣布您的条件吧，我一定能达到所有的要求。”王子说。

天亮了，国王叫来宣旨官，走街串巷，在城里宣告：“大家听好，有个勇士来娶国王的女儿，今天就要接受各种考验啦！”

很多人都来看热闹。姑娘也坐在台上欣赏表演。国王让侍卫拿来一袋羊毛。王子在仙女们的帮助下把那些羊毛一下子打入了地里。接着，侍卫们又拿来十巴特曼黄米，王子把黄米混在土里。瞬间，出现了不计其数的蚂蚁。不一会儿就帮他把黄米一粒不剩地收集起来了。在仙女们的帮助下，萨利曼王子完成了第三个要求。侍卫们把驮在大象身上穿过灌木林带过来的木柴点燃了，房间又闷又热。在正中间的屋子里，仙女们往缸里注满了水，王子就平安无恙地度过了一天一夜。

王子顺利地完成了所有的要求后，国王只好举行隆重的婚礼把女儿嫁给他。仙女姐妹们把王子和玛赫柔公主用法术带到了仙女母亲身边。库姆西仙女见到他们特别高兴，并举行了盛大的宴会。随后给王子出主意，说道：“小伙子，那条蟠龙正在等你。它会把姑娘抢走的，任何怪兽都打不过它。不过，有一个办法。再过十五天，蟠龙就会进入四十天的梦乡，到时候你就可以挥剑劈它的头，如果你运气好，就能把它砍死。”说完，仙

<sup>①</sup> 中亚地区古代重量单位，各地不一，约合180公斤到300公斤。

女们把萨利曼王子和玛赫柔公主带到了蟒龙住着的花园。蟒龙看到美丽的公主后得意地对王子说：“我曾对你发过誓，现在你可以回家了。”

萨利曼王子假装高兴地离开了花园。蟒龙把公主关在地牢后就开始了四十天的长眠。王子在仙女们的帮助下，翻过四十丈高的围墙，来到了蟒龙盘卧的地方。定睛一看，蟒龙正在酣睡中。于是，王子拔出长剑一次又一次地刺向蟒龙的头。蟒龙的头被劈碎了。人类之子达到了目的，国家和百姓也脱离了蟒龙带来的灾难。

萨利曼王子把玛赫柔公主从地牢里救了出来，并平安地带回了自己的国家。奄奄一息的国王见到王子回来格外欣喜，下令道：“马上举行盛大的婚礼！”他们的婚礼举行了四十个日夜，就这样，王子和公主如愿以偿，幸福地度过了一生。

## Opa-singillar

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir tog‘ning orasida bir kampir uch qizi bilan yashar ekan. Bir kuni to‘rtovi o‘tin tergani chiqishibdi. O‘tin terib bo‘lib uyga jo‘nashibdi. Qizlar oldin jo‘nashibdi. Kampir esa o‘tinni yelkasiga ololmay rosa urinibdi. O‘tinni yerga qo‘yib, bir qismini tashlabdi, ammo qolganini ham ko‘tarolmabdi. “Bu nimasi? Nahotki shu narsani ko‘tara olmasam, ichida toshi bormi?” debdi o‘ziga-o‘zi kampir. Shunday deb arqonni yechib, o‘tinning yana bir qismini tashlayotganda, birdan qimirlayotgan ilonga ko‘zi tushibdi. Kampir qo‘rqib ketib, o‘zini orqaga tashlabdi. Ilon bo‘lsa og‘zini ochib, tilga kiribdi:

- Uch qizingdan birini menga xotinlikka berasanmi, yo‘qmi. Tezroq javobini ber. Agar bermasang, seni tirik qo‘ymayman, bir yamlab yutib yuboraman, - debdi.

Ilon shunday deyishi bilan kampirni qaltiroq bosibdi va qizlarini chaqiribdi.

Qizlarim, qizlarim, qayting orqangizga, yordam beringlar menga, - deb yolvoribdi. Ular chopib kelishib, onasining ilon oldida qalt-qalt qilib titrab turganini ko‘rishibdi. Kampir:

Aziz qizlarim, ilon sizlardan bittangizni o‘ziga xotinlikka so‘rayapti, qaysi biringiz tegasiz? - debdi. Qizlarining uchchovи ham hayron qolishibdi. Ilon esa g‘azablanib pishillay boshlabdi, kampir katta qiziga, keyin o‘rtanchasiga yalinib ko‘ribdi. Ammo qizlari: “Biz odammiz-ku, qanday qilib ilonga tegamiz”, deb rozi bo‘lishmabdi. Kampir kichik qiziga qarabdi, Kenja qizi:

- Ona, siz uyg'a boring, ilonga men tegaman, - debdi. Qiz ilon bilan egri-bugri yo'llardan yuribdi, to'lqinli daryolardan suzib, bahaybat daraxtlar atrofidan aylanib, nihoyat qalin o'rmonzorga yetibdi. O'rmonning o'rtasida yarqirab turgan saroy ko'rinishdi. Saroy oldiga borib, ilon:

- Mana shu bizning uyimiz bo'ladi, - deb eshikka surkalishi bilan yosh va go'zal yigitga aylanibdi. Qiz hayron qolibdi. Bir yildan keyin qiz o'g'il ko'ribdi. Oradan ikki-uch yil o'tibdi. Bir kuni u onasinikiga bormoqchi bo'libdi va eng chiroyli kiyimini kiyibdi, sochlariga, qo'llariga, bo'yniga marvarid, yoqut bezaklar taqibdi. Katta opasi singlisining qimmatbaho toshlar va ipak-baxmallarga o'ralganini ko'rib, qalbi hasadga to'libdi. U singlisini o'ldirib, uning o'rniga ilonning oldiga o'zi bormoqchi bo'libdi. Singlisi uyiga qaytayotganda:

- Men senikiga mehmon bo'lib boraman, - debdi,
- Mayli, yuring, opa, - debdi singlisi.

Ular tog'lardan oshib, daryolardan kechib, uzoq yo'l yuribdilar. Opasi singlisinikiga olib boradigan yo'lni so'rabi. Ular yarim yo'lga borganda, opasi singlisiga:

- Kun juda isidi, sen bolang bilan charchading, menga ber, men ko'tara qolay, - debdi. Singlisi bolasini opasiga beribdi, ular yana yo'l yurishibdi, Bir oz yo'l yurgandan so'ng, opasi qo'lidagi bolani bildirmay sekin chimchilabdi. Bola chinqirab yig'labdi.

- Nimaga yig'layapti? - deb so'rabi singlisi. Opasi:
- Boshingdag'i peshanabog'ingni berarmishsan, o'rarmish, - debdi. Singlisi boshidan ro'molini yechib, o'g'liga o'rab qo'yibdi. Yarim yo'lga borishgach opasi yana bolani chimchilab olibdi; bola yig'lab yuboribdi. Singlisi, "nimaga yig'layapti", deb so'rabi,
- Bo'yinbog'ingni so'rayapti, - debdi opasi. Yana bir ozdan keyin bolasi chinqirib yig'labdi, onasi hayron bo'lib yana so'rabi,

- Bolang tilla va kumush marjonlaringni so‘rayapti, - debdi, Onasi hammasini yechib, o‘g‘liga beribdi. Opa-singil katta daryoning bo‘yiga yetib kelishibdi. Suv balandlikdan tushar ekan.

Opasi daryo labida ochilib turgan qizil gulni ko‘rib, bolani chimchilabdi. Bola chidayolmay qichqirib yuboribdi. Singlisi sababini so‘rabdi.

- Hech narsa bo‘lgani yo‘q, hu, anavi qizil guldan boshqa hech narsa kerak emas, deyapti. Nega qarab turibsan? Gulni olib ber, - debdi opasi. Singlisi kelib, qizil gulga qo‘l cho‘zganda, opasi uni itarib yuboribdi. Singlisi suvga yiqilib g‘oyib bo‘libdi. Opasi bolani bahona qilib olgan kiyimlarni kiyibdi, bolani yelkasiga o‘tqizib singlisi aytib bergen yo‘ldan ketaveribdi. Ko‘p o‘tmay oltin qasrga kirib boribdi. Uni ko‘rishi bilan yigit: - Sen xotinimga o‘xshamayapsan. Xotinim cho‘tir emasdi, uning yuzlari oppoq edi, - debdi.

Buni qarang-a, nega o‘xshamas ekanman, kiyimlarimga qara, bezaklarimni ko‘r. Yuzim o‘zgaribdimi? Nega ham o‘zgarmasin, ilgari hech qachon buncha uzoq yo‘l-yurmagan edim, oftobda qorayib ketdim. Onam chor-nochor yashaydi, qornim to‘yib ovqat yemadim. Shuning uchun ham qoraydim. U yerda karavot ham, paryostiq ham yo‘q, somonning ustida yotdim, somon yuzimimga botdi, shuning uchun cho‘tir bo‘lib qoldim, - debdi. Yigit uning kuyinib gapirgan gaplariga ishonibdi.

Bola to‘qqiz yoshga kirgach, poda boqa boshlabdi. Bir kuni bola o‘z podasi bilan daryoning onasi cho‘kkan joyiga kelibdi. U suv ichmoqchi bo‘lib endigina engashgan ekan, suvdan chiroyli qushcha uchib chiqibdi. U daraxtga qo‘nib, qo‘sish ayta boshlabdi:

Eh, yetimcha, yetimcha,

Mol boqasan tungacha,

O‘tin tashib o‘rmondan,

Ovqatsiz, kun botguncha.

Ko‘pdan beri sen sho‘rlik,

O‘gay onaga malay.

Tuqqan onang emas-da,

Qiynaydi, chunki o‘gay.

Bola bu qo‘shiqni eshitgach, atrofga qarabdi, ko‘zi qushchaga tushibdi.

Bola qushchadan ko‘zini uzolmay, uning qo‘shig‘ini tinglabdi. Bu vaqtda uning mollari birovlarining ekiniga kirib, payhon qilib yuboribdi. Dehqonlar bolaning otasini chaqibdilar. Kechqurun bola dashtdan qaytgach, otasi undan: “Nega mollarni dehqonlarning ekinlariga qo‘yib yubording”, deb so‘rabdi. Bola: “Boshimda ro‘mol yo‘q, dala jazirama issiq bo‘lgani uchun, salqin joyda o‘tirgan edim, mollar ekinga kiribdi”, debdi. Otasi o‘g‘liga ro‘mol olib beribdi. Keyingi kun bola yana o‘sha daryo bo‘yiga borgan ekan, qushcha uchib chiqib, yana qo‘shiq ayta boshlabdi. Bola ashulaga qulq solib mahliyo bo‘lib turganda, mollar yana ekinlarga kirib payhon qilibdi. Otasi yana bolasini urishibdi.

Kecha onam menga bitta yupqa ko‘rpa berdi, kechasi bilansov uq qotib chiqdim, kunduzi esa oftobda isinib o‘tirib, uxlab qolibman, - debdi bola. Kechasi otasi o‘g‘lining ustiga ikkita ko‘rpa yopib qo‘yibdi. Bir kun o‘tgach, bola mollarni yana daryo bo‘yiga haydab boribdi. Daryodan o‘sha qushcha uchib chiqibdi. Bu safar bolaning boshi ustidan aylanib uchib kuylabdi:

Eh, yetimcha, yetimcha,

Uxlamaysan kun-kecha.

Tuqqan onang u emas,

Xabaring yo‘q zarracha.

Bola qushchaning qo‘shig‘ini eshitib hayron bo‘lib turganda, mollar yana o‘sha ekinzorga kirib ketibdi, buni eshitib, otasining jahli chiqib, o‘g‘lini urmoqchi bo‘lib qo‘l ko‘targanda:

- Ota, men bir gap aytaman, qulq soling, - debdi bola. - Men mollarni tog‘ orasidagi daryo bo‘yiga haydab borsam, har kuni suv ichidan chiroyli bir

qushcha uchib chiqadi va odamdek kuylay boshlaydi. Uning kuylashicha, men yetimcha emishman, o‘gay onani o‘z onam deb yurgan emishman. Qushcha har kuni shu gapni aytadi, unga qulq solib, mollarni esimdan chiqarib qo‘yaman, ular esa ekinlarga kirib ketishadi.

Otasi o‘g‘lidan: “Shu gaplarni rostdan aytyapsanmi?” - deb so‘rabdi. Bola: “Rost aytayapman, dada, - debdi, - ishonmasangiz ertaga men bilan yuring, o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rasiz”. Borishibdi. O‘g‘li aytganidek suvdan chiroyli bir qushcha uchib chiqib, daraxt tepasida odamdek kuylay boshlabdi. Otasi o‘ylanib turib:

- Ey, qushcha, kelib chap kaftimga qo‘n. Agar kelmasang, senga o‘q uzaman, -debdii.

Qushcha daraxtdan qanot yozib uchibdi va otasining chap kaftiga kelib qo‘nibdi. Otasi qushchani qo‘yniga solib uyiga qaytibdi. Uyida u to‘r qafas yasab, qushchani unga solib, oldiga don tashlabdi. Qafasni uy oldidagi daraxt shoxiga osib qo‘yibdi. Shundan keyin uy oldidan o‘tuvchilar qushchaning qo‘shig‘ini eshita boshlabdilar. Bir kuni o‘gay ona uyda yolg‘iz o‘tirganda, qushchaning qo‘shig‘ini eshitib qolibdi,

Yovuz xotin bu xotin,

Qora, bedavo xotin.

Doim yomonliklarni,

Ravo ko‘rgan bu xotin.

O‘gay ona bu so‘zlarni eshitib, g‘azabdan titrab, qafasni daraxtdan yulib olib, uyga kiribdi. To‘rqafas ichidan qushchani olib g‘ijimlab o‘ldiribdi. Keyin bu qilgan ishimni birov ko‘rib qolmadimikin deb, derazaga yuguribdi. Orqasiga qarasa, qushchaning o‘rnida bir parcha suyak yotganmish. Qo‘rqib ketib, vaxima bilan boshqa xonaga yugurib chiqibdi. Qaytib chiqib qarasa suyakning o‘rnida yangi qaychi turganmish. To‘ymas, xasis xotinning ko‘zlar yonibdi va uni olib uyiga yashiribdi. Kechqurun ota-o‘g‘il qaytib kelibdilar

va qushchani so‘rabdilar. Xotini: “Men uydan chiqqanim yo‘q, qushchaning qayoqqa yo‘qolganini bilmayman”, debdi. O‘gay ona ertalab uyiga kirsa, qaychi hamma narsani qiymalab tashlagan emish. Qaychini olib, uloqtiribdi. Qoyalar orasida bir kampir yolg‘iz yasharkan. Shu kuni u suv olib ketayotganda yerda yotgan qaychini ko‘rib qolibdi va olib, qo‘yniga yashiribdi. Kampir topib olgan narsasidan xursand bo‘lib uyiga qaytibdi. Bir kuni kampirga qaychi kerak bo‘libdi, qidirib, qidirib, hech qayerdan topolmabdi. Hovlisida esa bir chiroyli tovuq don terib yurganini ko‘ribdi. Kampir qaychiga juda achinibdi. Lekin hovlisida paydo bo‘lgan bu tovuqni yaxshi ko‘rib, yovvoyi mushuklar o‘g‘irlab ketib qolmasin deb, unga in yasabdi. Uning ichiga tovuqni qamabdi va unga suv, guruch beribdi. Ertasi kuni kampir daladan qaytib, uyga kirib, osh qilaman desa, qozon to‘la issiq va mazali ovqat tayyor emish. Keyingi kuni ham kampir erta bilan tovuq turgan qafasni bekitib dalaga chiqibdi, kun og‘ib, uyga qaytibdi. Qarasa, tovuq hamishagidek inda turgan emish, biroq ovqat pishirilgan emish. Uchinchi kuni kampir daladan uyga barvaqt qaytib, hovlisiga shox devor orqasidan mo‘ralabdi. Qarasa, go‘zal bir qiz uylarni saranjomlab yuribdi. Kampir eshikni ochib, “hoy qiz”, deb qichqirgan ham ekanki, u to‘satdan g‘oyib bo‘libdi. Kampir tovuq turgan inga borib qarasa, tovuq jimgina uxbay yotganmish. Qozonda esa yana ovqat pishirig‘liq emish. To‘rtinchi kuni kampir inni bekitib, dalaga jo‘nabdi-yu, yarim yo‘lga bormay, yana orqasiga qaytibdi. Asta eshik oldiga kelib, tirqishidan ichkariga mo‘ralabdi. Uyda go‘zal bir qiz yurganini ko‘ribdi. Kampir eshikni lang ochibdi-da, “yaxshi qiz, qo‘rqma”, debdi sekingina. Bu safar qiz tovuqqa aylanib ulgurolmabdi. U kampirga o‘zining g‘amli taqdirini gapirib beribdi va “meni qiz qilib oling”, debdi. Kampir xursand bo‘libdi. Ikkovlari bir-birini hurmatlab, dalada birga ishlab, kunni o‘tkazaveribdilar. Bir kuni kechqurun qiz kampir bilan uzoq maslahatlashibdi. Ertasiga erta bilan cho‘pon bolani ko‘rgani kelibdi. Bolaning otasi bu go‘zal qizga uzoq vaqt tikilib qolibdi, xotiniga o‘xshatibdi

va uni saroyga taklif qilibdi. Ertasi kuni esa qiz kampir bilan saroyda mehmon bo‘lishibdi, Bola qizga uzoq tikilibdi-da, sekingina:

- Bu mening onam, tuqqan onam, - debdi.

O‘gay ona bolani savalay ketibdi. Yigit bu qizni va xotinini sinamoqchi bo‘libdi. “Agar qiz haqiqatan ham mening xotinim, o‘g‘limning onasi bo‘lsa, u begunoh. Tikanzordan bemalol o‘tadi. Kim yolg‘onchi bo‘lsa jazosini yeysi”, deb o‘ylabdi va ikkala ayolga tikanzordan yalangoyoq o‘tishni buyuribdi. Birinchi bo‘lib singlisi tikanzor ustidan epchil yurib ketibdi, oyoqlari qonamabdi ham. Navbat opasiga kelibdi. Yerdan nayzadek bo‘lib chiqib turgan tikanaklarni ko‘rib, uning rangi o‘chibdi, tikilib turgan ko‘zlar uni ilgari yurishga majbur qilibdi. Lekin u uch qadam ham bosa olmabdi. Tikanlar oyog‘iga kiribdi, qonatib yuboribdi. Nihoyat, yiqilib tushibdi va to‘qson to‘qqiz tikanak uning yuragiga sanchilibdi, u til tortmay o‘lib qolibdi. Singil esa shu zahoti avvalgi qiyofasiga qaytibdi. Ota-bola o‘zlarini unga otibdilar. Shunday qilib, murod-maqsadlariga yetibdilar.

## 姊妹

很久很久以前，在一条山沟里住着一位老婆婆带着三个女儿。有一天，她们四个人一起去山里拾柴。姑娘们拾够柴之后，先走了。老婆婆拾好柴，无论怎么努力，都不能把木柴扛到肩上。她把木柴放在地上，扔掉了一些，还是扛不动。“怎么回事？我连这么一点柴都扛不动了吗？里面不会是有石头吧？”老婆婆自言自语道。于是，她解开捆木柴的绳子，又把一些木柴扔了。这时，她看到木柴里有一条蛇蠢蠢欲动。老婆婆惊慌失措地倒在地上，没想到蛇开口说话了：“从你的三个女儿中选一个嫁给我，赶紧答复，如果不嫁，我就把你活生生地吞掉！”老婆婆吓得大喊起来，叫女儿们来救她。“女儿们啊，快回来，帮帮我。”老婆婆哀求道。

三个女儿跑过来一看，她们的母亲正在蛇的面前瑟瑟发抖。老婆婆说：“亲爱的女儿们，蛇想娶你们其中一个人，你们谁愿意嫁给它呢？”三个女儿都非常惊讶，不知如何是好。蛇见状，非常生气，发出咝咝的声音。老婆婆先求大女儿，然后又求二女儿。但是女儿们很不情愿地说：“我们是人呀，怎么能嫁给蛇呢？”老婆婆无奈地看向小女儿，小女儿从容地说：“母亲，您先回去吧，我嫁给蛇。”

姑娘跟蛇一起走过蜿蜒曲折的羊肠小道，游过波涛滚滚的大河，绕过参天的大树，来到了一片茂密的森林。在森林里出现了一座金碧辉煌的城堡。走到城堡门口，蛇说：“这就是我们的家。”话音一落，蛇就把身子往门上一蹭，立刻就变成了一个英俊的小伙子。姑娘难以置信。一年后，姑娘生了一个儿子。就这样，又过了两三年。有一天，她穿上漂亮的衣服，戴上珍珠项链和宝石镯子去看望母亲。看见小妹身穿丝缎，珠光宝气，大

姐心里产生了强烈的嫉妒。大姐打算先杀了小妹，然后自己去蛇的家。小妹正要回家时，大姐说：“我想去你家做客。”小妹马上答应了，“好的，那我们走吧，姐姐。”

她们穿过千山万水，走了漫长的路。大姐问小妹哪条路通向她的家。走到半路，大姐对小妹说：“天气太热了，你和孩子也都累坏了吧，来，让我抱一会儿。”小妹把孩子给了大姐又继续赶路了。走了一阵儿，大姐不露声色地掐了一下手里的孩子。孩子大哭起来。“孩子怎么哭了呀？”小妹问。大姐回答说：“他可能是想要你头上的纱巾裹在身上吧。”于是，小妹把纱巾解下来给孩子包上了。又走了一段路，大姐又把孩子掐了一下，孩子又哭起来。小妹问：“孩子哭什么呀？”大姐说：“他可能想要你的项链了。”过了一阵儿，孩子又哭起来。小妹感到奇怪，又问了大姐，大姐说：“你的这个孩子想要你的金银项链吧？”小妹取下所有的首饰都给了孩子。两姐妹来到了一条波涛汹涌的大河边，河水一泻千里。

大姐看到河岸有一朵玫瑰花，又狠狠地掐了一下孩子。孩子又开始大哭起来。小妹又问什么原因。大姐说：“没事，孩子就是想要那朵玫瑰花。愣着干什么呀？去把花摘下来！”当小妹伸出手摘花的一刹那，狠心的大姐把她推到河里了。小妹瞬间被河水淹没了。接着，大姐穿上妹妹的衣服，背着孩子，沿着妹妹指的路出发了。不久，她到了金碧辉煌的城堡。小伙子一见到她就说：“你怎么不像我夫人呀，她的脸像雪一样白，不像你的脸斑斑点点的。”

“您好好看看，怎么会不一样啊，看看我的衣服，看看我的首饰。我的脸变了吗？怎么会不变呢，以前我从来没有走过这么漫长的旅途，我被太阳晒黑了。再说，我母亲生活穷苦，我在娘家没有吃饱过，所以我的脸才会变黑。家里没有床，也没有羽绒枕头，我就在麦草上睡觉，麦秆扎到脸上，就变得斑斑点点的。”姐姐狡辩道。小伙子相信了她的说辞和甜言蜜语。

过了几年，孩子满九岁时就开始出去放羊了。有一天，孩子来到了曾经淹死母亲的河边。孩子刚刚弯下身子想要喝水，突然从水里飞出了一只

漂亮的鸟。鸟飞到树枝上，开始唱起歌谣：

可怜的儿啊，  
从早到晚就放羊。  
捡柴拾柴在丛林，  
饿着肚子到天黑。  
常常在外吃苦头，  
继母把你当奴仆。  
毕竟不是你亲妈，  
虐待你的是后妈。

听到这首歌，孩子环顾四周，目光落到了那只鸟身上。孩子目不转睛地望着小鸟，全神贯注地听它唱歌。这时，孩子的羊群跑进了一个农田，把农田踩成了泥。农民就向他父亲告了状。晚上，孩子回到了家，父亲问他：“你为什么把羊放到人家的农田里呢，把农田都踩坏了。”孩子回答道：“我没有戴遮太阳的头巾，戈壁滩酷热，我就在一个凉快的地方休息，羊群就乘机跑进了农田。”父亲听完，就给了儿子一条头巾。第二天，孩子又来到那条河边，鸟也飞来了，又开始唱那首歌。孩子陶醉在歌声里，没想到他的羊群又跑进农田里，把农田踩成了泥。父亲把他打了一顿。

可怜的孩子对父亲说：“昨晚母亲给我盖了一条很薄的被子，我一晚上受冻，所以白天我就在暖和的阳光下睡着了。”当天晚上，父亲往孩子的身上盖了两条被子。过了一天，孩子又把羊群带到了河边。那只鸟又从河里飞了出来。这一次，鸟在孩子头顶上飞了几圈，开始唱歌了：

可怜的儿啊，  
日日夜夜不能眠。  
毕竟不是你亲妈，  
可悲的你不知情。

孩子听到小鸟的歌谣很吃惊，这时他的羊群又跑到那个农田里去了。父亲听说后非常生气，抬起手又准备打孩子。

“父亲，我有话对您说，请您听听，”孩子说道，“每当我把羊群带到

山间的河边时，河水里就会飞出一只漂亮的小鸟，开始像人一样唱歌。从它的歌中，我得知自己应该是个孤儿，一直把后妈当成亲生母亲了。小鸟每天唱一样的歌，听到它的歌声后，我就忘了羊群，没想到羊群就跑进农田里了。儿子哭着说。

父亲问：“你说的都是真的吗？”儿子回答道：“我说的都是真的，如果您不相信，明天跟我一起去河边，亲眼看看吧。”第二天，他们一起去了。正如儿子所说，从河里飞出一只漂亮的小鸟，飞上枝头开始唱歌。父亲陷入沉思，便问小鸟：“喂，小鸟，你快飞到我的左手掌吧，如果你不飞过来，我就射死你。”

小鸟拍打着翅膀从枝头飞起落到了父亲的左手掌上。父亲把小鸟揣在怀里回到了家。他专门为小鸟做了一只笼子，还撒了一些谷粒，然后把笼子挂在门口的树枝上。从那以后，从门前经过的路人都可以听到小鸟的歌谣了。

有一天，孩子的后妈独自一人在家，听到了小鸟的歌谣：

狼心狗肺的女人，  
人面兽心的女人。  
做尽昧心的坏事，  
不择手段的女人。

后妈听到这些话，非常生气，把笼子从枝头拿下来，带进屋里。她抓出小鸟毫不留情地掐死了。她害怕有人看到她做的事，就跑到窗边看了看。当她回头看小鸟时，小鸟不见了，只剩一块骨头。她吓得离开了那个房间。镇静下来后，她又去看，发现骨头不见了，那里放着一把崭新的剪刀。这个贪得无厌的女人眼里露出凶光，拿起剪刀藏在家里。晚上，父子俩回家后就问起小鸟。后妈回答道：“我一直没有出门，不知道小鸟去哪儿了。”第二天，当后妈一大早进屋时，发现那把剪刀把屋里的所有东西都剪成了碎片。她气得把剪刀立刻扔掉了。

在悬崖峭壁间住着一位独居的老婆婆。那天，她正好取水回家，在路上看到了那把剪刀，她捡起来藏在怀里。老婆婆捡到了东西，非常高兴地

回了家。有一天，老婆婆要用剪刀，东翻西找，怎么也找不到那把剪刀。这时，她发现一只好看的母鸡在院子里吃食。老婆婆想起剪刀就很难过。可是，当她看到院子里的母鸡又高兴起来。她怕这只鸡被野猫吃掉，就专门搭了一个窝。她把鸡关在窝里，喂了水和大米。第二天，老婆婆从农田回家准备做饭时，发现在锅里早已做好了热腾腾香喷喷的一顿美餐。第三天，老婆婆一大早把鸡窝关好去了农田，太阳落山时，老婆婆回家了。她看那只鸡和往常一样在窝里，可是锅里又做好了美餐。第四天，老婆婆早早地从农田回来了，她躲在围墙后面偷偷地盯着院子，想探个究竟。她发现有一位美丽的姑娘正在收拾屋子。老婆婆推开门喊那个姑娘，姑娘瞬间不见了。老婆婆来到鸡窝旁看，那只鸡正在静静地睡觉呢。锅里仍然做好了饭菜。第五天，老婆婆又关好鸡窝出去了，但是半路上就折回来了。到了家门口，她悄悄地从门缝往里瞧，看到家里还是有位美丽的姑娘。老婆婆轻轻地推开门，慢慢地说：“好姑娘，你别怕。”这次，姑娘来不及变回鸡了。她对老婆婆讲述了自己坎坷的遭遇，并提出让老婆婆收养她做女儿。老婆婆特别开心，就这样母女俩相互尊重、相依为命地过起日子了。有一天晚上，姑娘跟老婆婆商量了很久。她们一大早出发，去看了那个牧童。牧童的父亲见到这位美丽的姑娘，觉得她很像自己的妻子，并盛情邀请她们去家里做客。老婆婆和姑娘就去了。

孩子望着姑娘，轻声地说：“她才是我的母亲，是我的亲生母亲。”这时，后妈责骂了孩子。孩子的父亲决定考验一下姑娘和自己的夫人。他想：如果这位姑娘真的是我的妻子，我儿子的母亲，她就可以勇敢地走过荆棘丛，那她就是无罪的。谁要是撒谎，就会得到相应的惩罚。于是，他就让两个女人光着脚走过荆棘丛。首先是小妹，她轻松地走过荆棘，脚下竟没有出血。然后就轮到了姐姐。姐姐看到地上像刺刀一样的荆棘，吓得面如土色，但是在众人的目光下她不得不往前走。还没有走三步，荆棘的乱刺就插入她的双脚，流出了鲜血。最后，她倒下了，被九十九根荆棘刺伤了心脏，说不出一句话就死了。妹妹一下子恢复了原来的模样。父子俩激动地拥抱了她。就这样，他们都实现了自己的心愿，过上了幸福的生活。

## Muqbil toshotar

Buxoro amirining go‘zal qizi bo‘lgan ekan. U qiz qanchali chiroyli bo‘lsa, shunchali g‘ayratli ekan. Uning ismi Mehrinigor ekan.

Mehrinigor yuziga niqob tortib, xuddi yigitlardek qilich-qalqon bilan ko‘vaqtini ovda o‘tkazar ekan. U bir kuni sakkiz yuz yigit bilan ovga chiqibdi. Bu ovga chiqqan yigitlar o‘q otishga, kamand tashlashga shunaqangi usta ekanki, agar bittasi kamandni halqa-halqa qilib mirrix yulduzini mo‘ljallab tashlasa, shubhasiz mirrix yulduzini ilintirarkan. Agar Mehrinigor o‘zi o‘q otadigan bo‘lsa, mabodo bu qizning otgan o‘qi mening gardishimga tegib qolgunday bo‘lsa, gul mixlarim to‘kilib ketadimi, deb falak titrab turarkan. Mehrinigor yigitlari bilan ov qila-qila bir toqqa yetibdi. Tog‘ juda baland ekan, bir tomoni ketganicha to‘qay ekan. Tog‘ning bir chekkasidan chiroyli kiyik chiqib qolibdi. Mehrinigor yigitlarga qarab: “Mana shu kiyikni o‘rtaga olinglar, uni tirikligicha tutishimiz kerak, kiyik kimning yonidan o‘tib ketsa, shu odamga jazo beraman”, debdi. Sakkiz yuz odam har tarafdan davra olib kiyikka kamand tashlabdi. Kiyik shunaqa epchil ekanki, sakkiz yuz yigitning kamandiga ilinmasdan chap berib, malikaning oldidan chiqib ketibdi. Malika o‘q-yoyni g‘azab bilan otibdi, tegmabdi. Kiyik tog‘ma-tog‘ oshib ketibdi. Shu tog‘da cho‘pon mol boqib yurgan ekan. Kiyik shuning ro‘parasidan o‘tib qolibdi. Cho‘pon palaxmonga toshni solib kiyikning shoxini mo‘ljallab urgan ekan, kiyikning shoxi ikki yoqqa uchib, kiyik mukkasiga yiqilibdi. Malika ot qo‘yib ketayotganida tog‘ning bir chekkasidan bir yo‘lbars pishqirib malikaga yuguribdi. Ot yo‘lbarsdan

hurkib orqaga tiklangan ekan, malika otdan yiqilib tushibdi. Yo‘lbars malikaga yetishiga ikki qadam qolganda, yaqinda turgan cho‘pon tosh bilan yo‘lbarsning manglayiga bir urib, miyasining mag‘zini chiqarib yuboribdi. Cho‘pon yugurib kelib, malikani o‘rnidan turg‘azmoqchi bo‘libdi.

Shu vaqt sakkiz yuz yigit yetib kelibdi, malikani bu ahvolda ko‘rib hayron bo‘lishibdi. Cho‘pon bechora nima qilishini bilmabdi. Malika darhol otga minib, qo‘lidagi uzugini cho‘ponga hadya qilibdi.

Malika saroyga qaytgandan keyin, qaytib ovga chiqmaslikka va erkaklar libosini kiymaslikka qasamyod etibdi.

Endi gapni cho‘pondan eshiting. Bechora cho‘pon malikadan ajrab qolgandan keyin uyga bazo‘r yetib kelibdi. Shu kundan boshlab qattiq kasal bo‘lib yotib qolibdi. Cho‘pon tog‘ xalqining eng yaxshi ko‘rgan farzandi ekan, uning ismi-laqabi Muqbil Toshotar ekan. Muqbilning to‘satdan kasal bo‘lib qolganiga tog‘ xalqi hayron bo‘libdi. Muqbil tog‘ xalqining podasini boqib, uni yirtqich hayvonlardan saqlar ekan. Cho‘pon har qanday vahshiy hayvonni bitta tosh bilan urib yiqitar ekan. Yirtqichlar Muqbildan qo‘rqib, tog‘ xalqining yaylovlariغا yo‘lamas ekan. Muqbil kasal bo‘lgandan keyin, yirtqichlar tog‘ xalqining mol-joniga hujum qila boshlabdi.

Muqbil Toshotarning keksa otasi bilan qari onasi bor ekan. Ular Muqbilning kasaliga kuyib yig‘lashar ekan. Tog‘ odamlari Muqbilning ahvoldidan har kuni xabar olib turishar ekan. Ular ichida bir donishmand chol bor ekan. U bir kuni Muqbilning yonida o‘tirib:

- O‘g‘lim, sening kasaling ishq kasali bo‘lsa kerak. Rostini ayt, bolam, bu dard senga qaydan keldi? Qaysi bir qora ko‘zning nozik qarashiga, qaysi bir jingalak sochning kamandiga asir-mubtalo bo‘lib qolding? - deb so‘rabdi.

Cho‘pon yotgan joyida ko‘zyoshi qilib:

- Ey, ota, nimasini so‘raysiz. Mening dardim tuzalmaydigan dardga o‘xshaydi, - debdi.

Shunda chol yana:

- Jon bolam, yuragingdagi dard-hasratingni ayt. Agar sen yaxshi ko‘rgan qiz osmondagи yulduz bo‘lsa ham, olib beramiz, - debdi.

Cho‘pon malikani ko‘rganini, uning lutf etib, qo‘lidagi uzugini berib ketganligini birma-bir aytibdi.

Chol yigitning dardi ishqidan ekanligini bilib, bu sirni tog‘ xalqiga aytibdi:

- Bizning Muqbil Toshotarimiz podsho qizi Mehrinigorga oshiq bo‘libdi. Endi bunga bir tadbir o‘ylab topmasalaring Muqbilning dardi yana og‘irlashadi, - debdi.

Tog‘ odamlari nari o‘ylab, beri o‘ylab:

- Podsho qizini Muqbilga bermaydi, - deyishiibdi. Keyin ulardan biri:  
- Shunday bo‘lsa xam kishi yuborib ko‘ramiz, bersa bergani, bermasa hammamiz yakdil bo‘lib urushamiz. Yo birato‘la o‘lib ketamiz, yo Muqbilni tilagiga yetkazarmiz, - debdi.

Donishmand chol bir qancha kishini ergashtirib, podsho qiziga sovchi bo‘lib boribdi. Sovchilar bir qancha qo‘yu yilqilarni podshoga tuhfa uchun olib borishibdi. Podsho ularga qarab:

- Xo‘sish, nima arzlarining bor? - deb so‘rabdi. Donishmand chol hamma voqeani bayon qilib, keyin:

- Shohim, biz sizga qulchilikka keldik, - debdi. Podsho tutaqib ketib:  
- E, nodonlar, mening qizimga senlar sovchi bo‘lib keldilaringmi? Bu qanday nomus yo meni mensimaysanlarmi? - deb sovchilarni zindonga soldiribdi. Keyin lashkarlariga qarab:

- Hammangiz borib, sahroyilarining mol-mulkini olib kelng, Muqbilni tiriklayin tutib keltiring! - debdi.

Lashkarlar tog‘ odamlarining mol-xollarini talab, ko‘p jabr-zulm qilibdilar. Muqbilning otasi hamma voqeani o‘g‘liga aytib beribdi. Shunda Muqbil:

- Hali meni deb bechora xalq shu ahvolga tushdimi, - debdi-yu,

palaxmonini yelkasiga osib, jang bo‘layotgan joyga ot choptirib ketibdi. Borib qarasa, podsho lashkarlari xalqni ezib-yanchib talayotgan ekan. Muqbil darhol ularga qarshi jang boshlabdi. Lashkarlarning allaqanchasini qirib tashlabdi. Qolganlari o‘rdaga qarab qochishibdi. Borib podshoga arz qilishibdi:

- E, shohi olam, Muqbil Toshotar juda zo‘r yigit ekan. Har qanday odamni bir musht ursa, til tortqizmay o‘ldirar ekan. Juda ko‘p odam o‘ldi, biz dargohingizga qochib qutuldik.

Podsho g‘azablanib, butun lashkarini yig‘diribdi, o‘zi bosh bo‘lib, jangga kiribdi.

Muqbil uzoqdan turib tosh bilan lashkarlarning boshlarini uchiraveribdi.

Podsho Muqbilga teng kelolmasligiga ko‘zi yetib, unga kishi yuboribdi:

“E, pahlavon yigit! Qizimni senga berishga roziman. Lekin ikkita shartim bor: biri shuki, qo‘lingda to‘rttadan sakkizta yo‘lbarsni yetaklab kelasan. Ikkinchisi, Hotamtoyning boshini kesib keltirasan. Uning yaxshi oti bor, olib kelasan. Shu shartlarimni bajo keltirsang, qizimni senga berayin va seni o‘zimga kuyov qilib olayin”, - debdi podsho.

Muqbil bu shartni qabul qilibdi, ammo podshodan zindonda yotgan kambag‘al bechoralarni chiqarib yuborishni talab qilibdi. Podsho bu talabni qabul qilibdi. Zindondagilarga bosh-oyoq kiyim kiygizib bo‘shatib yuboribdi.

Muqbil tog‘ xalqidan fotiha olib, yakka o‘zi sher qidirib ketibdi. Yura-yura bir to‘qayzorga yetibdi. Qamishzorda uqlab yotgan bir yo‘lbarsni ko‘rib qolibdi. Vaqtini qo‘ldan bermay, bora solib uni bo‘g‘ibdi. Yo‘lbars o‘rnidan turib Muqbil bilan olisha ketibdi. Muqbil yo‘lbarsni mahkam bo‘g‘ib olib, mushuk boladay qo‘lda o‘ynatib, bir-ikki marta yerga uribdi, Yo‘lbars gangrab qolgandan keyin, tumshug‘iga behush qiladigan dori tutib, uni hushidan ketkazibdi, tumshug‘iga burov solib, yo‘g‘on zanjir bilan daraxtga bog‘lab yana yo‘lga tushibdi.

Yurib-yurib bir toqqa chiqibdi, unda yana bir yo‘lbarsga duch kelibdi.

Olishib, uni ham yengibdi: zanjir bilan katta daraxtga bog‘labdi. Shu yo‘sinda sakkizta sherni tutib bog‘labdi. Keyin ularning hammasini bir joyga yig‘ib, birin-ketin hushiga keltirib, tepib-tepib qo‘rqtib qo‘yibdi. Yo‘lbarslar qo‘rqanidan boshlarini quyi solib turar emish. Muqbil tumshug‘iga burov solingan sakkiz sherni yetaklab yo‘l yurib, yo‘l yursa xam mo‘l yurib, yetti kun deganda qishlog‘iga yetib kelibdi. Muqbilniig o‘lja bilan omon-eson kelganini ko‘rgan qishloq xalqi juda sevinibdi.

Muqbil erta bilan qo‘lida to‘rttadan sakkizta yo‘lbarsni yetaklab, podsho saroyiga boribdi.

“Muqbil Toshotar shartni bajarib, sakkizta yo‘lbarsni yetaklab kelayotir”, deb hammaning yuragiga g‘ulg‘ula tushibdi. Odamlar uni ko‘rishlari bilan to‘s-to‘polon qilib qocha boshlabdilar. Yasovullar bu xabarni podshoga yetkazibdilar. Podshoni vahima bosib: “Men uni o‘lib ketar deb o‘ylagan edim, attang, tarik qolibdi”, deb bir qancha lashkar bilan Muqbilni kutib olgani chiqibdi. U noiloj bunday debdi:

- Balli, o‘g‘lim, balli! Shartimni bajaribsan. Endi qo‘lingdagi yo‘lbarslarni toqqa eltib, o‘sha yerda terilarini shil, keyin ikkinchi shartni bajarishga kirish, - debdi.

Muqbil qishloqdagi yor-do‘stlari bilan xayrlashib, Hotamning boshi bilan otini olib kelgani jo‘nabdi. To‘rt oy deganda Hotamtoyning shahriga yetibdi, “Shu kecha biron joyda qo‘nay”, deb o‘ylab borayotgan ekan, katta suvning bo‘yida qirq yoshlar chamasidagi bir odam qo‘tir echkini yuvib turganini ko‘ribdi. Muqbil undan:

- Hotam shahardami yo biror yoqqa ketganmi? - deb so‘rabdi.
- Hotamtoy shaharda. Yo‘l bo‘lsin, yigit. Musofirga o‘xshaysiz. Bugun biznikida mehmon bo‘ling, Hotamtoy oldiga ertaga borarsiz.

Muqbil o‘zicha: “Ayni muddao bo‘ldi”, deb sevinib, haligi odamning uyiga boribdi. Uy egasi Muqbilni yaxshilab mehmon qilibdi. Vaqt yarim kechadan

oqqanda uy egasi Muqbildan so‘rabdi.

- Yaxshi yigit, Hotamtoya nima ishingiz bor edi?

- Ha, zarur ishim bor edi. Siz uni taniysizmi?

O‘zi qanday odam?

- Ha, Hotamni taniyman, u shu shaharning kattasi bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham boshqa shohlar singari taxtda o‘tirmayda, faqirlardek xalq orasida yuradi. U kishida qanday ishingiz bor edi? - deb yana so‘rabdi uy egasi. Shunda Muqbil:

- Men juda hayron bo‘lib qoldim. Yurtimiz podshosining amri bilan Hotamning boshini olib ketgani kelgan edim. Gapingizga qaraganda Hotam juda bahodir yigit ko‘rinadi. Men endi u bilan maydonda qanday olishar ekanman?

Uy egasi Muqbildan:

- Hotam sizga nima yomonlik qilgan edi? - deb so‘rabdi.

- Hotam-ku, menga yomonlik qilgan emas, - debdi Muqbil. So‘ngra Hotamni nima uchun o‘ldirgani kelganini birma-bir aytib beribdi.

- Siz bu kecha yaxshilab dam oling, - debdi uy egasi, - erta bilan sizni Hotamga olib boray.

Muqbil uy egasidan minnatdor bo‘lib, uyquga ketibdi.

Tong otibdi. Ertalab nonushtadan keyin Muqbil:

- Qani, Hotamning uyini menga ko‘rsatib qo‘ying, - debdi. Uy egasi:

Hotam degani men bo‘laman, Podsho aytgan otni bisotimda boshqa narsa bo‘lmanidan, kecha so‘yib, sizga ovqat qildim. Siz oshiq yigit ekansiz, siz uchun bitta bosh emas, mingtasi ham qurban bo‘lsin, - deb Muqbil oldiga tiz cho‘kib, boshini tutibdi. Muqbil Hotamning mardligini ko‘rib, yig‘lab yuboribdi.

So‘ngra bunday debdi:

- Yo‘q, Sizning boshingizni kesadigan qo‘lim qirqilsin! Podsho qizini

bermasa, bermay qo‘ya qolsin. Men sizdek sahiyning qurboni bo‘lay!

Hotamning bir o‘g‘li bor ekan, otasiga qarab debdi:

- Mehmon to‘g‘ri aytadilar. Bari bir, siz boshingizni berganizing bilan: “Bu bosh Hotamniki emas”, deb uchinchi shart qo‘yishdan toymaydi.

So‘ngra Muqbilga qarab:

- Otam siz bilan birga borsinlar, agar otamning boshi bilan sizdek muhtoj kishining hojati chiqadigan bo‘lsa, men mingdan-mingga roziman, - debdi.

O‘g‘lining so‘zini Hotam ma’qullab:

- Men biron ta muhtoj odam hatto boshimni so‘rab kelganda ham ayamayman, deb ahd qilgan edim. Endi murodimga yetdim, - debdi.

Muqbil nima qilarini bilmay noiloj, Hotam bilan yo‘lga tushibdi. Ular bir qancha kundan keyin Buxoro shahriga yetib kelibdilar. Muqbil Hotam bilan podsho oldiga kiribdi. Podsho Muqbilni ko‘rib izzat bilan yukori o‘tqizib:

- Qani, Hotamning boshi bilan otini olib keldingmi? - deb so‘rabdi.

- Hotam saxiy yigit ekan, bilmasdan men uning uyiga borib, mehmon bo‘lib qolibman. Bisotida boshqa narsasi bo‘limganidan o‘sha siz ishqivoz bo‘lgan otni so‘yib, mendek bir musofirni mehmon qildi. Mening ahvolimni bilib, boshini qilichga tutib berdi. Lekin men shunday mard, saxiy kishining boshini emas, o‘zini tiriklayin olib keldim, - debdi. Podsho:

- Qani Hotamning o‘zi! - deb qichqiribdi. Hotam o‘rnidan turib podshoga ta’zim qilibdi. Podshoning ranggi o‘chib, badaniga titroq turibdi. Keyin Hotam podshoga qarab:

- Siz yo‘qlagan Hotam men bo‘laman, - debdi. Podsho Muqbilga qarab:

- Men senga “Hotamning boshini keltir” degan edim. Sen buni tiriklayin olib kelibsan, - degan ekan, Hotam:

- Men o‘z yurtimda boshimni bu yigitga tortiq qilgan edim, unamadi. Noiloj o‘zim birga keldim. Mana, marhamat, boshimni kestiring, shu bechorani murodiga yetkazing, - debdi.

Podsho jallod chaqirib, Hotamni o‘limga buyuribdi. Jallod Hotamni olib ketayotganda Muqbil chidolmabdi: bir musht urib jallodning yuzini teskari qilib qo‘yibdi, keyin podshoga g‘azab bilan:

Qadim zamonlarda chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning yolg‘iz og‘li bor ekan. Chol o‘tin terib, bozorda sotar, puliga don-dun olib kelarkan. O‘tin terayotgan cholning yoniga bir kun bir yigit kelib: “Menga bir odam kerak edi.”, debdi. Bu kishi podsho ekan. Chol: “Meni xizmatingizga olsangiz, hamma ishingizni qilaman, olivy hazrat”, debdi. Podsho cholni vayronaga olib borib: “Ana shu yerdagi tillolarni kavlab olib berasan. Ammo bu sirni hech kim bilmasin!” debdi. Chol bu yerda bir oy ishlab, juda ko‘p oltin qazib olibdi, lekin o‘zi ham holdan ketibdi.

Og‘lini sog‘ingan chol podshodan uyiga borishga ijozat so‘rabdi: “Olampanoh, og‘limni sog‘indim, uyimga borib kelmoqchi edim”, debdi.

Podsho ruxsat bermabdi.

Oradan bir yil o‘tibdi. Chol bor oltinlarni qazib olib beribdi. Oxirida podsho cholga bir hovuch tilla beribdi-da: “Og‘zingdan chiqarsang, o‘lasan”, debdi.

Chol ont ichibdi. Podsho cholning va‘dasiga ishonmay, uni o‘ldirib tinchimoqchi bo‘libdi va uni chuqurga itarib yuborib, tiriklayin ko‘mibdi. Oradan uch oy o‘tibdi. Cholning go‘ri ustida qora changal o‘sib chiqibdi.

Endi gapni cholning xotini bilan o‘g‘lidan eshiting. Cholning uyidagi bir kitobda uning taqdiri yozilgan ekan. Kitobni ko‘rib qolgan o‘g‘li onasiga:

-Shu kitobni olib berasiz!-debdi. Onasi bo‘lsa:

-Sen kitobni o‘qishni bilmasang, savoding chiqsa keyin o‘qiysan,-debdi.

Bola onasiga, meni o‘qishga bering, deb yalinaveribdi. Onasi ko‘nmagach, bolaning o‘zi maktabga boribdi. O‘shanda bola yetti yoshda ekan. Besh oy deganda harflarni taniydigan bo‘libdi. Bir kuni onasiga: “Endi kitobni olib bering, sizga o‘qib beraman”, debdi. Onasi olib beribdi. Bola kitobni olib o‘qisa, otasining podsho xizmatiga borgani bitilgan ekan.

“Cholni podsho vayronaga olib boradi, uni bir yil ishlatib, vayronadagi yuz xum tillani qazdirib oladi. Podsho tillalarni olib bo‘lgandan so‘ng yaxshilik o‘rniga yomonlik qilib, cholni o‘zi qazigan chuqurga tiriklayin ko‘madi. Uning go‘ri ustida qora changal o‘sib chiqadi. Agar og‘li podshodan qasdini olaman desa, so‘qmoqdan yurib tog‘ri o‘sha yerga kelsin, eshikni doira qilib chalsa, ochiladi”, deb yozilgan ekan. Ertalab bola yo‘lga tushibdi. Yurib-yurib bir shaharga yetib kelibdi. Shaharda jarchilar jar solayotgan ekan. Bola bir qariyadan: “Bu qanaqa shovqin-suron?” deb so‘rabdi. Mo‘ysafid unga:

-Bolam, shu kecha podshomiz tush ko‘ribdi. Tushida bir qarg‘a kelib, a‘lo hazratni qal‘adan ko‘tarib osmonga uchib ketibdi-yu, “Kallangni berasanmi?” deb so‘rabdi. Podsho qo‘rqib, yarim davlatimni beraman, deb uyg‘onibdi. Bu tushning ta‘birini hech kim topolmayapti. Endi hammamizni dorga osadi!-deb yig‘labdi. Shunda bola:

- Ul tushning ta‘birini men bilaman, -debdii.

Qurandozlar bolani podsho huzuriga olib boribdilar.

Qani, ayt tushimaning ta‘birini!- debdi podsho.

Tushingizga mening otamni o‘ldirgan podsho kirgan. U podsho otamni bir yil ishlatib, yuz xum tilla qazdirib olgan. So‘ng otamga bir hovuch tilla berib, birovga aytmasin deb, uni o‘zi qazigan chuqurga itarib yuborib, tiriklayin ko‘mib tashlagan. Otamning go‘ri ustida qora changal o‘sib chiqqan. O‘sha podsho sizning davlatingizni egallab, boshingizniyam olib ketadi. Yuring, podshohim, vaqt o‘tmasdan biz harakat qilaylik. O‘sha mamlakatga boradigan yo‘lni bilaman. Otamning kushandasidan men ham qasdimni olishim kerak!-

debdı bola.

Podsho bir qancha navkarları bilan bolaning izidan boraveribdilar. Uzoqda bir darvoza ko‘rinibdi. Darvoza oldiga yetib kelganlarida podsho boladan:

Qanday qilib darvozani ochamiz?- deb so‘rabdi.

Darvozani doira qilib chalamiz, ochiladi, -debdı yetti yashar bola.

Podsho bilan bola darvozani doira qilib chala boshlabdilar. Darvoza ochilibdi.

Ular ichkariga kiribdilar. Podsho navkarları bolaning otasini tiriklayin ko‘mgan podshoni asir olibdilar. Yuz xum tillani ham aravalariiga ortib, o‘z yurtlariga qaytib kelibdilar. Podsho qarib qolgan , valiahdi ham yo‘q ekan. U yetti yashar bolaga:

- O‘g‘lim, endi sen bilan ota bola tutindik. Men qarib qoldim, o‘rnimga endi sen podsho bo‘lasan. Men esa sohibi maslahating bo‘laman,- debdi.

Bola onasini ham saroyga olib kelibdi.

Yetti yashar bola mamlakat podshosi bo‘lib, murod-maqsadiga yetibdi.

## 七岁神童

古时候，有一对儿老汉和老太太。他们只有一个儿子。老汉每天拾木柴，拿到巴扎卖，用卖柴的钱买粮食维持生活。有一天，老汉正在拾柴，有个小伙子来到他跟前说：“我需要一个人帮着做事。”其实，这是一位国王。老汉诚恳地对他说：“阁下，如果您能让我为您做事，我乐意做任何事。”国王把老汉带到一片荒凉的地方说：“你把这里的金子给我挖出来，但是，这里的秘密不能告诉任何人。”就这样，老汉在这里干了一个月，挖出了很多金子，老汉也累得筋疲力尽。

老汉非常想念自己的儿子，就请求国王允许他回家，说道：“阁下，我太想儿子了，我想回一趟家，可以吗？”但是，国王不同意。

过了一年，老汉把所有的黄金都挖出来了。于是，国王给了他一把金子，并交代道：“如果说出去，就是死路一条。”

老汉发了誓。但是，国王不相信他的誓言，想杀了老汉，以绝后患。于是，他把老汉推进深深的坑里活埋了。过了三个月，老汉的坟头长出了黑色的灌木。

再说老汉的老婆和儿子吧。老汉家里有一本书，书里记载了他的命运。他的儿子看到了这本书后，对母亲说：“请给我看一下书吧。”母亲对儿子说：“孩子，你还不会读书，等你识字后再读吧。”

儿子恳求母亲送他上学。母亲不同意，可是儿子自己到学校念书了。那时，儿子才满七岁。过了五个月，儿子已经能识字了。有一天，儿子对母亲说：“您现在可以给我拿书了，我给您读！”儿子读了书，书里记录了父亲为国王打工的事情，并写道：国王把老汉带到一个荒凉的地方，让他

干了一年，挖了一百罐金子。国王拿到金子后，恩将仇报，把老汉推进自己挖的坑里活埋了。老汉的坟头长出了黑色的灌木。如果儿子想要报仇的话，要通过曲折的羊肠小道直接到那里，然后绕圈敲一下门，门就会打开。

第二天一大早，老汉的儿子就动身了。走啊走啊，他来到了一座城市。城里的传令官正在大声传令。小男孩就问一位老人：“这是怎么回事呀？”

“孩子，昨晚我们国王做了一个梦。梦中飞来一只乌鸦，把国王带出了城堡，飞到空中，对他说‘我要你的脑袋’。国王非常害怕，决定把一半儿的财富给它，然后就醒了。没有人能解这个梦。现在，国王想把我们都绞死！”老人哭着对他说。

小男孩说：“我能解这个梦。”侍卫们把小男孩带去觐见国王。国王说：“那就赶快给我解梦吧！”“陛下，您梦见的是杀害我父亲的国王。那个国王让我的父亲干了一年，挖了一百罐金子。然后，给了我的父亲一把金子，为了不让他说出秘密，就把他推进自己挖的坑里，把他活埋了。我父亲的坟头上长出了黑色的灌木。就是那个国王，想霸占您的财富，还想要您的脑袋呢。陛下，我们赶快动身吧，我知道去那个国家的路。我要为父亲报仇！”小男孩说。

国王率领一些侍卫跟着小男孩出发了。他们看到不远处有一个大门。到了大门口，国王问小男孩：“怎样才能打开大门呢？”

“我们需要绕圈敲门，门就会打开。”年仅七岁的小男孩回答。

国王和小男孩就开始绕圈敲大门。大门开了，他们一起走了进去。国王的侍卫俘虏了杀死小男孩父亲的国王。他们把一百罐黄金搬到车上，运回了自己的国家。国王的年纪大了，也没有继承人。他对七岁的小男孩说：“孩子，我们就是父子，我已经老了，你就继位当国王，我当你的顾问。”

小男孩接受了，还把母亲也接到宫殿里。就这样，七岁的小男孩成为了国王，从此如愿以偿地度过了一生。

## Egri va To‘g‘ri

Qadim zamonda bir qishloqda bir yigit bor ekan. Unga To‘g‘riboy deb nom bergen ekanlar. Uning bittagina ozg‘in otidan bo‘lak narsasi yo‘q ekan. Bora-bora qishloqda ish topilmaydigan bo‘lib, uning ahvoli og‘irlashibdi. Oti bilan mardikor ishlashga ikkinchi bir tomonga jo‘nab ketibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Yo‘lda unga bitta piyoda yigit hamroh bo‘libdi. Ikkisi suhbatlashib ketaveribdi.

— Xo‘sh, yo‘l bo‘lsin? — debdi To‘g‘riboy.  
— Mardikorlik qilish uchun uzoq shaharga ketayotibman, — deb javob beribdi piyoda yigit.  
— Isming nima?  
— Egriboy.  
— Seniki-chi?  
— To‘g‘riboy. Ikkimizning nomimiz bir-biriga mos ekan, kel, endi do‘s<sup>t</sup> bo‘laylik, birga ishlab, birga yuraylik,— debdi To‘g‘riboy. Ikkovlari shunday deb ahdlashibdi. Otliq yigit sherigining piyoda yurganiga rahm qilib, unga otini beribdi. Egriboy egarga o‘tirishi bilan otga bir qamchi berib, tezda ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. To‘g‘riboy hayron bo‘lib qolaveribdi. “Do‘s<sup>t</sup>man, deb dushmanning ishini qilib ketdi,” deb o‘ylabdi u. Rangi o‘chibdi, qoni qochibdi. Oxiri piyoda yo‘lga ravona bo‘libdi. Kech kiribdi. Tik yo‘ldan adashib, bir so‘qmoqqa qayrilibdi. So‘qmoq ham qalin bir o‘rmonga kirib yo‘qolgach, To‘g‘riboy qayoqqa borishini bilmay, sarosimaga tushibdi. Kech kuz pallasi

ekan. Daraxtlarning yaproqlari to‘kilgan, qip yalang‘och, bargsiz qolgan qalin o‘rmon ekan. To‘g‘rib boy hamon yo‘l axtarib yuraveribdi. Kech kirib qorong‘u tushibdi. Osmonda yulduzlar ham ko‘rina boshlabdi. To‘g‘rib boy yo‘lda bir eski tandirga duch kelibdi. U o‘ylabdi: “Qorong‘u kechada o‘rmonda yurish yaxshi emas, kechani shu tandirda yotib o‘tkazayin”, deb uplash uchun tandir ichiga kirib yotibdi. Shu vaqtarda o‘rmonda arslon — podshoh, yo‘lbars — vazir, bo‘ri—karnaychi, qashqir — surnaychi, tulki — dostonchi ekan. Haliqi tandir turgan joy shularning bazmgohi ekan. Birozdan keyin bir qashqir kelib, tandir atrofini aylanib, uvlabdi. Oradan sal o‘tmay, o‘rmondagi butun hayvon shu yerga yig‘ilibdi. Arslon podshoh o‘rniga o‘tirib, o‘rmon ahllarining majlisini davom ettiribdi. Tulki doston boshlabdi:

— Yoronlar, shu o‘rmon orqasidagi tog‘da bir g‘or bor, men o‘n yildan buyon o‘sha g‘orda yashayman. Odamlarning uyida nimaiki bo‘lsa, mening uyimda ham bor. O‘n yildan beri mol yig‘aman: gilam, palos, ko‘rpa, to‘sak — hammasi bor menda. Yaxshi-yaxshi ovqatlar ham bor.

Tandir ichida o‘tirgan To‘g‘rib boy o‘zicha o‘ylabdi: “Yaxshi, tulkiboynikiga mehmonga borsam bo‘lar ekan”. Navbat bilan qashqir so‘z boshlabdi:

— Sening joying qiziq emas, tulkiboy. Mana bu tepa ostida mening bir sichqonim bor, har kun tush vaqtida shuni tomosha qilaman. Uning qirq bitta tillasi bor. Shularni inidan chiqarib o‘ynaydi, keyin ularni o‘rtaga uyib, o‘zi tomosha qiladi, atrofida aylanadi, keyin yana iniga opkirib ketadi.

Endi ayiq afsonasini eshititing:

— Bu ham qiziq emas, — deb so‘zga kirishibdi ayiq, — bizning shu o‘rmonda bir qayrag‘och bor, uning pastrog‘ida ikki shoxchasi bor. Shu shoxchalarining yaproqlari butun kasallarga davo. Mana shu shahardagi podshohning qizi yetti yildan buyon kasal. Podshoh jar soldiradi: “Kimda-kim shu qizimni sog‘aytirsa, uni o‘shanga beraman” deydi. Sog‘aytirolmagan kishini o‘ldiradi. Ko‘p tabiblar qizni sog‘aytirolmasdan, dorga osilib ketdilar.

Agar o'sha qayrag'och yaprog'ini ezib, shu qizga ichirilsa, u darrov sog'ayar va shu ishni qilgan kishi podshoh qizini olar edi.

So'ngra bo'ri afsona boshlabdi:

— Yoronlar, bizning ham bir qiziq hikoyamiz bor. Shu o'rmonning narigi chekkasida bir boyning qirq mingta qo'yisi bor. Men har kuni ikki qo'yni yeysman. Meni ushslash uchun hamma hiylani ishlatdilar. Lekin hech iloj topolmadilar. Mana shu yaqin oradagi qir boshida turuvchi chol boboning bir iti bor. Agar shu itni sotib olsalar, u meni tilka-pora qilar edi.

Eng oxirida yo'lbars gap boshlabdi:

— Bo'ri aytgan boyning o'n ming yilqisi shu o'rmonning bir chekkasida o'tlab yuradi. Men shundan har kuni bir ot yeysman. Lekin shu otlarning ichida bir ola ayg'ir bor. Bir kishi ana shu ola ayg'irga minib, qo'liga qirq qildan eshilgan kamand olsa, bir qo'lida uzun xoda ushlab, bo'ynimga kamand solib, meni o'lguncha ursa, shu yilqiga sira yaqinlashmas edim. Mening eng katta dushmanim shu ola ayg'ir ekanligini boy bilmaydi...

Yo'lbars afsonasini tugatishi bilan tong ham yorishibdi. Hamma hayvonlar joy-joyiga tarqab ketibdilar.

To'g'riboy tandirdan chiqib tulkingin makoniga boribdi. Qarasa, hamma narsa joy-joyida, go'sht ham bor, yog' ham bor, guruch ham bor. Darhol qozonga yog' solib, olovni yoqa boshlagan ekan, tog' boshidan oshib kelayotgan tulkini ko'rib qolibdi va o'zini panaga olibdi. Tulki uyga kelgach, qozonda yog' dog' bo'layotganini ko'rib, hayron bo'lib qolibdi. Shunda To'g'riboy tulkini tappa bosib, bo'g'ib o'ldiribdi. Osh qilib yeb, qornini to'ydiribdi va yotib uxlabdi.

Ertasiga To'g'riboy qashqir aytgan tepalikni izlab ketibdi. Uni ham topib sichqonni o'ldiribdi va tillalarini beliga tugib olibdi. Keyin ayiq aytgan qayrag'ochning yaprog'ini ham olibdi. So'ngra cho'pon tomonga yo'l solibdi. Cho'ponni topib, undan hol-ahvol so'rabdi. Shunda cho'pon:

— Ahvol yomon, — debdi, — ancha vaqtdan beri bir bo‘ri har kuni ikkitadan qo‘yimni yeb ketadi. Hech ilojini qilolmayman. Xo‘jayin meni baloga qo‘yadi.

To‘g‘riboy so‘rabdi:

— Men shu bo‘ridan sizni qutqazsam, nima berasiz? Cho‘pon xo‘jayindan qirq qo‘y olib berishga va‘da qilibdi. To‘g‘riboy haligi boboning itini sotib olib, cho‘ponga beribdi. Cho‘pon bo‘ri ofatidan qutulibdi va To‘g‘riboyga xo‘jayindan qirq qo‘y olib beribdi. Shundan so‘ng To‘g‘riboy yilqichining oldiga boribdi. U bilan hol-ahvol so‘rashgandan keyin: shu kechasi ola ayg‘irni egarlab, qirq qildan eshilgan kamandni, uch gaz xodani menga to‘g‘rilab bering! — debdi. To‘g‘riboy otni minib, yo‘lbars keladigan so‘qmoqni poylab turibdi. Birdan yo‘lbars o‘rmondan yugurib chiqib, o‘zini otlar orasiga uribdi. To‘g‘riboy kamandni rostlab turib, yo‘lbarsning bo‘yniga solibdi. O‘rmonda yo‘lbarsni aylantirib yurib, o‘lguday uribdi. Yo‘lbars holdan ketib yiqilibdi. Yilqibon To‘g‘riboyning xizmati uchun ola ayg‘irni beribdi. To‘g‘riboy ola ayg‘irni minib shaharga yo‘l solibdi. Shaharga borsa, bozorda jarchi jar solayotgan ekan: — Podshohning qizi yetti yildan buyon kasal, kimki uni sog‘aytirsa, podshoh o‘shanga qizini beradi!.. Sog‘aytirolmasa, o‘ldiradi!

To‘g‘riboy jarchining orqasidan podshoh huzuriga boribdi va qizini boqib tuzatishga va‘da beribdi. Podshoh To‘g‘riboyni qizining huzuriga boshlab kiribdi. To‘g‘riboy yonidagi yaproqni qizga ezib ichiribdi. Shu bilan qiz uch kun deganda sog‘ayib ketibdi. Podshoh qizini To‘g‘riboyga beribdi. Podshoh To‘g‘riboydan so‘rabdi:

— Endi sizni qaysi shaharga hokim qilay? To‘g‘riboy aytibdi:

— Menga hokimlik kerak emas. O‘rmon etagidagi tog‘ ustiga bir uy solib bersangiz, bas. Men o‘z mehnatim bilan kun kechiraman. Podshoh uning aytganini qilibdi. To‘g‘riboy xotini bilan tog‘da yashabdi. Kunlardan bir kun

tush vaqtida o‘zining qadimgi otini minib borayotgan hamrohi Egriboyga ko‘zi tushibdi. Uni chaqirib keltiribdi va yaxshilab ziyofat qilibdi. Egriboy:

— Do‘stim, — debdi, bunday baland joyga qanday qilib imorat solding? Uyli-joyli bo‘libsan, bularni qayerdan topding? Birovga xiyonat qilgan kishining qorni sira to‘ymas ekan. Sening otingni olib qochib, qayerga borsam, ishim chappasidan keldi. O‘shandan beri bir marta ham qornim nonga to‘yanini bilmayman. To‘g‘riboy:

— Mana bu o‘rmon ichida bir tandir bor. Men o‘sha tandir ichida bir kecha yotib, bu narsalarga erishdim, — degan ekan, Egriboy:

— Sadag‘ang bo‘lay, menga ham ko‘rsatib qo‘y, men ham o‘sha tandirda bir kecha yotib chiqay, — debdi.

To‘g‘riboy uni boshlab borib, tandirni ko‘rsatibdi. Egriboy tandirga kirib yotibdi.

O‘rmon hayvonlari yana yig‘ilishibdi. Arslon podshoh:

— Mening afsonachi do‘stim tulki qayerda? — deb so‘rabdi.

Qashqir o‘rnidan turib shunday debdi:

— Afsona qursin: u kungi afsonaning kasofati bilan siz tulki do‘stingizdan, men tillali sichqonimdan ayrildim.

Uning ketidan ayiq o‘rnidan turib:

— Qayrag‘ochimizning yaproqlarini ham olib ketibdilar, — debdi.

Navbat bo‘riga kelganda, podshohga qarab debdi:

— Men oziq-ovqatimdan ajradim, cho‘pon men aytgan itni sotib oldi, tilka-poramni chiqazdi. Kaltak zarbidan a’zoyi-badanim shishib ketdi.

Arslon podshoh qovog‘ini solib turib, buyuribdi:

— Kim chaqimchi bo‘lsa, tutib o‘ldiring!

Qashqir tustovuqdan ko‘ribdi. Tustovuq: “Chaqimchi tandirda” deb uchib ketibdi. Hamma hayvonlar birdaniga tandirga yugurishib, uning ichida berkinib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va “chaqimchining jazosi — shu!”, deb uni

tilka-tilka qilib tashlashibdi.

Shunday qilib, To‘g‘riboy to‘g‘riliqidan maqsadiga yetibdi. Egriboy esa egriligidan jazosini tortibdi.

## 正直与奸诈

从前，村子里有一个年轻人。大家都叫他托格里巴依<sup>①</sup>。他除了一匹瘦马之外一无所有。慢慢地，在村里找不到活儿干，他的处境变得更加艰难。为了打工，他就牵着马到另一个地方去了。他历尽艰辛走啊，走啊。途中，来了一个年轻人步行陪着他。两人聊着天走着。

“你这是去哪儿呢？”托格里巴依问。

“我要去一个遥远的城市打工。”步行的年轻人回答道。

“你叫什么名字？”托格里巴依问。

“我叫埃格里巴依<sup>②</sup>，你呢？”年轻人间。

“我叫托格里巴依。我们的名字都如此相像，那我们就交个朋友，一起打工，一起搭伴儿吧。”托格里巴依说。俩人都表示愿意。有马的年轻人同情那个步行的，就把自己的马送给了他。没想到，埃格里巴依一骑上马鞍，就把鞭子一挥，很快就跑得无影无踪了。托格里巴依很惊讶，心想：他嘴上说是朋友，但做了恶棍的事情啊！他气得面无血色。最后，没办法只能步行了。夜幕开始降临。他在陡坡上迷了路，转向一条蜿蜒小路。当小路消失在茂密的森林中时，托格里巴依不知道该走向哪里，不知所措。已是深秋，树叶都落光了，森林光秃秃的。他还在寻找能走的道路。天已经黑了，星星开始在天空中闪烁。路上，他发现了一个废弃的馕

---

① 托格里巴依，人名，托格里，意思是笔直的、正直的、正确的；巴依，姓名后缀，意思是有钱人。

② 埃格里巴依，人名，埃格里，意思是弯曲的，引申为不忠、不正直；巴依，姓名后缀，意思是是有钱人。

坑<sup>①</sup>。他想：晚上走在森林里不安全，我还是在这个馕坑里过夜吧。于是，他就钻进馕坑睡觉了。那时，狮子是森林里的国王，老虎是大臣，狼是号手，猎豹是唢呐手，狐狸是说书人。那个有馕坑的地方正是他们的聚会之地。过了一会儿，一只野狼来了，围着馕坑走了几圈，嚎叫起来。没过多久，森林里所有的动物都聚集到了这里。狮子就座以后，森林的子民开始聚会了。狐狸唱起了史诗：

“朋友们，这片森林后面的山里有一个山洞，我在那个山洞里已经生活了十年。人家有什么，我家就有什么。十年以来，我一直在收集各种财物：地毯、垫子、被子、褥子，我什么都有。还有非常好吃的食物。”

托格里巴依坐在馕坑里，心想：好呀，那我可以去狐狸巴依的家里做客了。按照顺序，轮到野狼说话了。

它说：“你的地方没有意思，狐狸巴依。我在这山下养了一只老鼠，每天中午我都看它玩儿。它有四十一枚金币。它常常从窝里拿出金币玩耍，然后把金币堆在一起观赏，围着转，然后把金币带回窝里。”

这时，熊开始讲它的传说。“这也没有意思，”熊讲述道，“我们的森林里有一棵榆树。榆树的底部有两个树枝。这些树枝的叶子可以治愈所有的疾病。我们国王的女儿已经病了七年了。国王宣告，谁能医治我女儿的病，我就把女儿嫁给他。如果治不好，我就杀了他。许多大夫都因为无法治愈这个女孩，被绞死了。如果把榆树叶压碎，给那个女孩喝，她就会立即康复，而做这事的人就会娶到国王的女儿。”

然后，狼又开始讲述一段传奇：“朋友们，我们也有一个有趣的故事。就在这片森林的另一端，有一个巴依<sup>②</sup>养了四万只羊。我每天吃两只羊。他们使出浑身解数来抓我。但没有抓到我。附近山顶上住着一位老人，他养了一条狗。如果他们买了这只狗，它就会把我吃了。”

最后，老虎开始说了：“狼所说的那个巴依也养了上万匹马在这片森林的另一端吃草。我每天吃其中的一匹马。这些马中有一匹种马。如果一

① 长坑，烤制馕饼的炉灶。

② 巴依，乌兹别克语boy的音译，指有钱人、富翁。

个人骑在这匹种马上，手握一条用四十根鬃毛捻成的套索，另一只手拿一根长杆，用套索套住我的脖子，往死里打我，我绝对不会靠近那些牲畜。巴依不会知道我的天敌就是那匹种马……”

老虎讲完它的故事，天开始亮了。所有的动物都散了。

托格里巴依爬出馕坑，前往狐狸的住处一看，真是应有尽有，有肉，有油，有米。他马上把油倒进锅里准备生火，就看见一只狐狸从山顶上过来，他赶紧藏起来。狐狸回到家，发现锅里有油，很吃惊。这时，托格里巴依出来连踢带踹，掐死了狐狸。他做了饭，填饱肚子，就去睡觉了。

第二天，托格里巴依去找野狼说的那座山。他也找到了，并杀死了老鼠，把金币绑在腰间。然后，他又找到熊说的那棵榆树，摘走了榆树叶。接着，他就朝牧羊人那儿走去。他找到了牧羊人，询问情况，牧羊人说：“情况很糟糕，很长一段时间了，有一只狼每天都吃掉两只羊。我实在没有办法。我的主人如果知道了会找我的麻烦。”

托格里巴依问道：“如果我帮你抓住那只狼，你会给我什么？”牧羊人答应从主人那里要四十只羊给他。托格里巴依立即买下了老人的狗，并交给了牧羊人。牧羊人终于摆脱了狼灾，并从主人那里要了四十只羊给了托格里巴依。之后，托格里巴依去找牧马人。询问情况之后，说：“你今夜给我备好种马，还有用四十根鬃毛捻成的套索和三戛孜<sup>①</sup>的长杆。”他骑着马，在路口等待着老虎的到来。突然，老虎从森林里跑出来，扑向马群。托格里巴依拿起套索，套住了老虎的脖子。他在森林里牵着老虎跑，把老虎往死里打。老虎最终倒下了。为了表示感谢，牧马人把种马送给了托格里巴依。他立即骑着种马奔向城里。进城后，国王的传令官正在巴扎大声传令，说：“国王的女儿病了七年，谁能治好她，国王就把女儿嫁给谁！如果治不好，就赐死！”

托格里巴依立即跟随传令官觐见国王，并承诺治好他的女儿。国王把托格里巴依带到了女儿面前。托格里巴依将身边的叶子捣碎，喂她喝了下

---

① 戛孜，乌兹别克语gaz的音译，一戛孜约为70厘米，长度为从胸口到手指的距离。

去。就这样，三天后，女孩就康复了。国王就把他的女儿嫁给了托格里巴依。

国王问托格里巴依：“我现在应该让你管辖哪个城市呢？”托格里巴依回答道：“我不想管理城市。请您在森林脚下的山上给我们盖一座房子就够了。我要靠自己的劳动生活。”国王照他说的做了。托格里巴依和妻子就住在山里。

有一天中午，他看到自己的同伴埃格里巴依骑着他的老马经过。他把埃格里巴依叫来，并给他吃了一顿丰盛的筵席。

埃格里巴依说：“我的朋友，你是怎么在这么高的地方盖房子的？你现在有家有室，你是怎么得到这些的？背叛别人的人是贪婪的。我骑着你的马跑了，在哪儿都不顺。从那以后，我就没有吃过一顿饱饭。”

托格里巴依就告诉他：“这片森林里有一个馕坑。我在那个馕坑里躺了一晚上就得到这些了。”

埃格里巴依恳求道：“求求你，告诉我，我也去那个馕坑里睡一晚。”

托格里巴依就领着他，给他找到了馕坑。埃格里巴依就躺进馕坑。

森林里的动物们再次聚集。狮子王说：“我那位讲传说的狐狸朋友在哪里？”

野狼站起来说道：“再不要提传说。就是因为讲传说，您失去了狐狸朋友，而我失去了玩金币的老鼠。”

接着熊站起来，说道：“我们榆树的叶子也被偷走了。”

当轮到狼时，它看着国王说：“我失去了食物，牧羊人买了我所说的那条狗，吓得我失魂落魄，把我打得体无完肤。”

狮王皱起眉头，命令道：“是谁告的密，就把谁杀掉！”

野狼责怪野鸡。“告密者在馕坑里。”野鸡说着就飞走了。所有的动物一下子冲到了馕坑前，抓住了躲在里面的埃格里巴依，把他撕成了碎片，说道：“这就是对告密者的惩罚。”

就这样，托格里巴依因为正直，实现了自己的愿望。埃格里巴依因为他的奸诈而受到了惩罚。

## Hunarning xosiyati

Kunlardan bir kuni bir kambag‘al dehqon qarigan chog‘ida o‘g‘li Rafiqni hunar o‘rgatish uchun duradgorga shogird qilib berib, odat bo‘yicha: “Eti sizga, suyagi bizga, shu bolani sizga topshirdim”, debdi. Duradgor bolani olib qolib, ishni qunt bilan o‘rganish va qiyinchiliklarni yengish kerakligini unga aytibdi. Rafiq biroz oq-qorani tanigan ekan, bir necha yil duradgorga yordamchi bo‘lib ishlab, uning hunarini puxta o‘rganibdi.

Kunlardan bir kuni Rafiq uxbab qolibdi. Tush ko‘ribdi. Tushida bir qancha qizlar kelib: “Tur, qachongacha uxlaysan”, deb hazil qilib turgan emishlar. Shu qizlardan biri juda go‘zal ekan. U qizni boshqa qizlar o‘rab olib, Rafiqqa ko‘rsatmas emish. Rafiq bir iloj qilib ko‘ribdi. Joyidan tursa, hech kim yo‘q, yolg‘iz o‘zi o‘tirgan emish. Shu kundan boshlab Rafiq qizni o‘ylab, borgan sari ozib keta beribdi. Duradgor usta ham, otasi ham hayron bo‘lishibdi. Dori-darmon qilishibdi, tuzalmabdi. Duradgor bilan bolaning otasi buning sababini bilmoqchi bo‘lishibdi. Otasi qo‘ymagandan keyin bola tushida ko‘rgan voqeani aytibdi. Shu qizni sevib qolganini bildiribdi. Otasi bilan duradgor bu bolani sayohatga yuborish maqsadida bir yog‘och ot qilib berishibdi. Bir necha kunlik oziq-ovqat tayyorlab, shu yog‘och otga mindirib jo‘natmoqchi bo‘lishibdi. Duradgor “O‘ng qulog‘ini burasang tepaga chiqadi, chap qulog‘ini burasang pastga tushadi”, deb o‘rgatibdi. Bola safarga jo‘nabdi. Bir necha kun yo‘l yurib, cho‘l-u sahrolardan oshib, bir kichkina qishloqqa yetib boribdi. Otining chap qulog‘ini burab yerga tushib, qishloqqa kiribdi.

Bu qishloqning chekkasida bir kampir yashar ekan. U shu qishloqdagi bir katta hovuzga qorovul ekan. Rafiq kampir oldiga borib salom beribdi. Kampir bolaning salomiga alik olib: “Ey, bolam, bu joylarda qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadi. Sen nima qilib yuribsan?” debdi. Rafiq dadillik bilan kelishining sababini kampirga gapirib beribdi. Kampir voqeani bilgandan keyin Rafiqqa yordam qilmoqchi bo‘lib, maslahat beribdi:

— O‘g‘lim, bugun mana bu hovuzga bir qancha qizlar kelib cho‘milishadi. Sening sevganing shu qizlar orasida bo‘lsa kerak. Sen yaxshilab qara, agar o‘sha qiz bo‘lsa, ular suvdan chiqquncha sekin bildirmay ko‘ylagini olib ket. Qiz suvdan chiqqandan keyin ko‘ylagini topa olmay shu hovuz yonida qolishga majbur bo‘ladi, — debdi. Rafiq hovuz yonidagi bir daraxt tagida poylab o‘tiribdi. Tush vaqtida bir qancha kaptarlar uchib kelib, bir dumalab qizga aylanibdi-da, suvga tushib cho‘mila boshlashibdi. Rafiq qarasa, o‘sha tushida ko‘rgan qizlar emish. Qizlar orasida sevgan qizi ham bor. Sekin borib qizning ko‘ylagini olmoqchi bo‘lib turganda, qiz sezib qolib, suvdan yugurib chiqibdi-da, yigitni bir shapaloq urib, kaptar bo‘lib uchib ketibdi. Uning orqasidan qolgan qizlar ham bir yumalab kaptar bo‘lib uchib ketibdi. Rafiq kampir oldiga kelib voqeani aytib, kampirdan ularning yashaydigan makonlarini so‘rabdi.

Kampir: “Ularning makoni tog‘ning kun chiqish tomonida”, debdi. Rafiq yana yog‘och otiga minib safarga jo‘nabdi. Bir necha kun yo‘l yurib, kampir aytgan tog‘ga yetib boribdi. Tepadan qarasa, tog‘ning orqasida bir to‘da qizlarning sayr qilib o‘ynab yurganlarini ko‘ribdi. Qizlarning har qaysisi yulduz kabi porlab turgandek ko‘rinibdi. Rafiq otining chap qulog‘ini burab pastga tushibdi. Qizlar ichida o‘z sevganini ko‘rib, otini bir yerga yashirib qo‘yibdi-da, bir chekkaga borib poylab o‘tiribdi. Birozdan keyin qizlar o‘ynab yurib charchab, hammasi bir maysa joyda yotib uxlab qolishibdi. Rafiq sekin borib qizning qo‘lidagi uzugini olib, o‘zining uzugini taqib, qaytib joyiga o‘tiribdi. Qiz uyg‘onib qarasa, qo‘lidagi uzugi o‘ziniki emas. Hayron bo‘libdi, lekin bu

sirni hech kimga aytmabdi. Qizlarga bildirmasdan, uzukning egasini qidiribdi. Qiz yurib-yurib Rafiq o'tirgan daraxt tagiga borib qolibdi. Rafiqni ko'rib:

— Ey, yigit, bu yerlarda nima qilib yuribsiz? Agar otam bilib qolsa, sizni mayda-mayda qilib tashlaydi, — debdi.

Rafiq joyidan turib, dadillik bilan uni tushida yaxshi ko'rib qolganini aytibdi. Qiz ham Rafiqni sevib qolibdi. Ular kampirning uyiga kelib, turmush quribdilar va bir qancha vaqt shu yerda yashabdilar. Bir kuni Rafiq o'z shahriga qaytmoqchi bo'libdi, otini minib kechasi jo'nashibdi. Bir qancha yo'l yurgandan keyin xotining vaqtisi soati yetib, bir o'g'il tug'ibdi. Bu yerda na suv va na o't yo'qligidan Rafiq o't va suv qidirib ketibdi. Ancha yurgandan keyin bir uydan tutun chiqqanini ko'ribdi. O'sha uyga kirib o't tilabdi. Uy egasi o't beribdi. Rafiq o'tni qanday qilib olib ketishni bilmay, oxiri belbog'inining bir uchini yondirib, oti bilan uchib kelayotganda o't yog'och otga tegib, kuyib, yerga tushibdi.

Xotin uni kutib xafa bo'lib o'tirsa, karvonlar kelib qolibdi. Karvonlar xotinni o'zлari bilan birga olib ketib, bir saroyda asrabdilar. Oradan bir necha yil o'tgandan keyin o'g'li Rasuljon ancha katta bo'lib qolibdi. Bir kuni xotin Rafiqning rasmini ko'chaga osib qo'yib, o'g'li Rasuljonga:

— Sen ko'chada poylab o'tir. Kimki shu rasmga qarab boshini ushlab tursa, darrov menga xabar ber, — debdi.

Rasuljon bir necha kunlar poylabdi. Kunlardan bir kuni Rafiq ko'p yo'llarni yurib shu qishloqqa kelib qolibdi.

Ko'chada ketayotib, bir saroy eshidiga osilib turgan o'zining rasmini ko'rib hayron bo'lib qolibdi. Rasuljon rasmga tikilib qarab turgan odamni ko'rib, onasiga xabar beribdi. Onasi kelib eri Rafiqni tanib ko'rishibdi, xursand bo'lishibdi. Rafiqning sochlari o'sgan, ust-boshi to'zib ketgan ekan. Xotini uni yuvintirib, yangi kiyimlar kiydiribdi. Bir kuni Rafiq ustasidan o'rgangan duradgorlik hunarini ishlatib uchar yog'och ot yasabdi. Bir necha kun shu

saroyda yashabdilar. Rafiq xotinini sog‘-salomat olib kelganlarga rahmat aytib, o‘g‘li bilan uchar otga mingashib, o‘z shahriga jo‘nabdi. O‘z yurtiga kelib, otasi va duradgor ustozи bilan ko‘rishibdi. Otasi o‘g‘lining sog‘-salomat izlagan qizini olib kelganiga xursand bo‘lib, to‘y-tomosha qilib beribdi. Rafiq duradgorning hunar o‘rgatganiga ko‘p rahmatlar aytibdi. Murod-maqsadlariga yetishibdi.

## 技艺的魔力

很久以前，有一位贫穷的农夫年老了，为了让儿子拉菲克学一门技艺就把他送到一位木匠那儿当学徒，并按照习俗对师傅说：“儿子的血肉之躯是您的，骨骼是我们的，我就把这个孩子托付给您了。”木匠留下了男孩，并告诉他一定要勤奋学习，战胜各种困难。拉菲克比较懂事，当了几年木匠的助手，扎扎实实地学会了木匠的手艺。

有一天，拉菲克睡着了。他做了一个梦。梦中，有几个姑娘对他调侃道：“起来吧，你还要睡多久？”其中的一位姑娘非常漂亮，她被其他姑娘围在中间，不让拉菲克看。拉菲克想尽办法去看。当他起身的时候，周边没有人，只有他自己坐在那儿。从那天起，拉菲克就一直想着这个女孩，日渐消瘦。木匠师傅和他的父亲都感到不可思议。带他看了病吃了药，但没有一丝好转。木匠和男孩的父亲都想知道原因。在父亲的询问下，男孩讲述了他的梦，并表达了对那个女孩的喜爱。木匠和他的父亲为男孩做了一匹木马，送他去旅行。他们准备了好几天的食物，让这匹木马驮着。木匠教导说：“你扭动它的右耳，它会向上走，扭动左耳，它会往下走。”就这样，男孩出发了。走了几天，穿过沙漠戈壁，他来到了一座小村庄。男孩扭了马的左耳，落到地面，进入了村子。

村边住着一位老妇人。她是村子里一个大水池的看守人。拉菲克走向老妇人并跟她打招呼。老妇人也向男孩回礼道：“哦，我的孩子，在我们这里，如果有鸟儿飞，它的翅膀会被灼伤，如果有人走路，他的脚会被烫伤。你来干什么？”拉菲克大胆地告诉老妇人他来的目的。

老妇人知道情况之后，想帮助拉菲克，她建议道：“我的孩子，今天

有很多姑娘会来这个水池里洗澡。你爱的人可能在这些姑娘之中。你要仔细看，如果有那个姑娘，在她们从水里出来之前，你就悄悄地把她的裙子拿走。姑娘从水里出来后，找不到她的裙子，只能留在水池边。”

拉菲克躲在水池附近的一棵树下观察。到了中午，飞来几只鸽子，在地上滚了一圈就变成了几个姑娘，开始在水池里洗澡。拉菲克一看，正是他在梦中看到的姑娘们。其中就有那个他心爱的姑娘。当他悄悄地去拿姑娘的裙子时，被姑娘发现了。那姑娘从水里跑出来，扇了小伙子一个巴掌，然后变成鸽子飞走了。其他的姑娘也变成鸽子飞走了。拉菲克来到老妇人面前，讲述了事情的经过，并询问姑娘们的住处。

老妇人说：“她们住的地方就在山日出的那边。”拉菲克再次骑上他的木马出发了。走了几天，他到达了老妇人所说的那座山。从山顶望去，那些姑娘正在山后散步、玩耍。每个姑娘都像星星一样闪闪发光。拉菲克扭了一下马的左耳，落到地上。他看到了自己的梦中情人。他把马藏起来，自己躲在一处张望。过了一会儿，姑娘们玩累了，就躺在草地上睡着了。拉菲克无声无息地走过去，摘下姑娘手上的戒指，给她戴上自己的戒指，回到了藏身之处观察。当姑娘醒来时，她发现手上的戒指不是自己的。她很惊讶，但她并没有把这个秘密告诉任何人。她瞒着其他姑娘，默默地寻找戒指的主人。姑娘找啊找，走到了拉菲克坐着的树下，问道：“嘿，年轻人，你来这里做什么？如果我父亲知道了，他会把你撕碎的。”

拉菲克站起来，大胆地说自己在梦中就爱上了她。姑娘也爱上了拉菲克。他们一起来到老妇人家成了亲，并在那里生活了一段时间。

有一天，拉菲克想要返回自己的城市，骑上马在晚上出发了。长途跋涉，不久，他的妻子在途中生下了一个儿子。这里既没有水也没有火，拉菲克就去寻找水和火。走了很长的路，他看到有一座房子冒着炊烟。他走进房子，并要些火种。这家的主人就给了他。拉菲克不知道如何把火种带走，于是他点燃了腰带的一端，策马飞奔。没想到，火碰到了木马，木马被点着，拉菲克掉到了地上。

妻子等啊等，很生气。这时，来了一个商队。商队带走了妻子，并将

她安置在一座宫殿里照顾。过了几年，拉菲克的儿子拉苏力江长大了。有一天，妻子把拉菲克的画像挂在街上，并对儿子拉苏力江说：“你就在街上等着。有谁看完这张画像后低下头，请立即通知我。”

拉苏力江等待了好几天。有一天，拉菲克走了很多路，来到了这个村庄。走在街上时，他惊讶地发现在一座宫殿门口挂着自己的画像。拉苏力江看到那个男人盯着画像，马上通知了母亲。母亲来了，认出了自己的丈夫拉菲克，非常高兴。拉菲克衣衫褴褛，头发也长长的。他的妻子给他洗澡，并穿上了新衣服。这一天，拉菲克利用从师傅那里学到的木工技艺制造了一匹会飞的木马。他们在这座宫殿里住了几天。拉菲克感谢了那些平安地带回他妻子的人之后，带着妻子和儿子骑上了飞马，前往他自己的城市。他回到自己的家乡，见到了他的父亲和木匠师傅。父亲见到儿子平安回家，还带回了心爱的姑娘，非常高兴，并为他们举办了热闹的婚礼。拉菲克感谢木匠师傅教了他这门手艺。大家都实现了自己愿望，过上了幸福的生活。

## Farhod va Shirin

Qadim zamonda bir podshohning qizi bo‘lgan ekan, ismi Shirin. Qizning oy desa og‘zi, kun desa ko‘zi bo‘lib, kulta og‘zidan gullar to‘kilar, yursa oyog‘idan tilla sochilar ekan. Qiz gulbog‘da qirq qizi bilan sayr etib yurar ekan. Nima uchundir qiz yoshligidan beri doimo g‘amgin ko‘rinar ekan. Qirq qiz Shirinning har qancha ko‘nglini olish uchun urinsalar ham o‘ynab-kulib, ochilib yurmas ekan. Bir kun kanizaklardan biri:

— Hech narsadan kamchililingiz bo‘lmasa, nima uchun doimo xafa ko‘rinasiz, — deb so‘rabdi. Shunda Shirin:

Men o‘ynab, davron surib kulib yursam, boshqalar qayg‘u-g‘amda bo‘lsa, undan nima foyda? — degan javobni qaytaribdi.

Bir kun Shirin daryo bo‘yida sochini yuvib o‘tirgan ekan. Uning qoshiga bir kampir kelib:

— Qizim, qani sening bu bo‘yingga munosib yigit bo‘lsa, — debdi. Shirin:

— Men ham o‘sha siz aytgan yigitni istar edim, — debdi. Bu so‘zni eshitgan kampir:

— Ana, sen istagan yigit daryoda oqib kelayotir, — deb aytibdi. Shirin daryoga qarayman deganda, boshidagi tilla tarog‘i suvga tushib ketibdi.

Ikkinchil bir mamlakat podshosining o‘g‘li daryoda cho‘milayotgan ekan. Tilla taroqni tutib olib, “Shu taroqning egasi kim bo‘lsa, o‘shani olaman”, deb ahd qilibdi. Elda yurib surishtira boshlabdi. Bir kampir bu taroqning egasi Shirin ekanligini aytibdi. Yigit qizni axtarib yo‘lga chiqibdi.

Kunchiqarda bir podshoh bor ekan, uning birgina Farhod nomli o‘g‘li bo‘lgan ekan. Farhod qayg‘urib, g‘amgin bo‘lib yurar ekan. Bir kun otasi o‘g‘lini qirq yigit bilan sayrga chiqaribdi. Farhodning ko‘zi tosh yo‘nib turgan ustaga tushibdi. Shu hunarga ishqiboz bo‘lib, uni o‘rgana boshlabdi. Otasi uni bu ishdan qaytarsa ham unamabdi, o‘z bilganidan qolmabdi. Kunlardan bir kun Farhod otasining xazinasiga kirib qolibdi. Undagi tosh sandiqni ochib, oyinayi jahonnamoga qarabdi. Oynada avval Guliqahqah parini ko‘ribdi. Keyin kunbotar tomonda Shirinning arg‘imchoq uchib turganini ko‘ribdi. Qizga oshiq bo‘lib, boshidan hushi ketib yiqilgach, qo‘lidagi oyna yerga tushib sinibdi. Farhod Shirinni qidirib yo‘lga chiqibdi.

Yo‘lda bir daraxtning soyasida bir yigitning uxlab yotganini ko‘ribdi. Daraxt tepasidan bir ilon tushib yigitga zahar solay deb turganida, Farhod yugurib kelib xanjar bilan ilonni o‘ldiribdi. Yigit cho‘chib uyg‘onibdi va Farhodga: “Hozir tushimda bir kishi “Tur, do‘sting keldi”, deb aytdi”, debdi va bu fojianing oldini olib qutqargani uchun Farhodga rahmat aytibdi. U bilan umrbod do‘st bo‘libdi.

Bular yo‘l yurib, Shirinning mamlakatiga yetib kelishibdi, Farhod bir tog‘ tagida bir necha ming askar to‘planib turganini ko‘ribdi, bir cho‘pondan bu askarlar kimniki ekanini bilib olibdi. Shu vaqt Shirin qirq kanizagi bilan kelibdi. Shamol Shirinning yuzidagi pardasini ko‘taribdi. Farhod uni ko‘rib oshig‘-u beqaror bo‘lib hushidan ketibdi. Do‘sti suyab uni o‘ziga keltiribdi. Biroq Shirin va qirq qiz ketib qolgan ekan. Farhod Shirinning qayerga ketganini so‘rabdi. Do‘sti: “Shirin shu tog‘ga suv chiqargan yigitga tegaman, deb aytdi”, — debdi. Shu so‘zni eshitgan Farhod g‘ayratga kelib, tog‘-toshni qo‘pora boshlabdi. Oxiri bu ishni tugatib, tog‘ga suv chiqaribdi. Do‘sti tog‘ning bir tomoniga Shirinning, ikkinchi tomoniga Farhodning rasmini chizibdi.

Bir kuni Shirin tog‘ etagida Farhod qurgan hovuzni ko‘rish uchun qirq kanizagi bilan kelibdi. Shirin mevali daraxtlar bilan bezangan obod joyni

ko‘ribdi. Bu cho‘lni suvgaga serob qilib, bog‘-u bo‘stonga aylantirgan bahodir Farhodni ko‘rib Shirin ham uni sevib qolibdi. Farhodni o‘z qasriga olib borib, ziyo fat qilibdi.

Shunday qilib, ular murod maqsadlariga yetibdilar.

## 法尔哈德与希琳

很久以前，国王有一位美丽的女儿，名叫希琳。她有月亮般漂亮的小嘴，太阳般火热的眼睛，她笑起来口吐鲜花，走起来脚下飘落金币。公主常常和四十位姑娘在花园里散步。但不知道为什么，公主从小到大总是充满忧郁的样子。无论四十个姑娘如何取悦希琳，但她从不嬉闹，也不开心。

一天，有一个侍女问道：“公主，您什么都不缺，为什么看着总是很悲伤？”

希琳回答道：“如果我每天玩耍嬉戏，而其他人却充满悲苦，那有什么意思？”

有一天，希琳正在河边洗头。一位老妇人向她走来说：“姑娘啊，有哪个小伙子能够配得上你的容貌啊？”

希琳说道：“我也希望能遇到这样的人。”

老妇人一听，说道：“你看，你要找的那个人正在顺河而下呢。”当她抬头眺望大河时，头上的金梳子不小心掉进了河里。

另一个国家的王子正好在河边游泳。他捡到了梳子，并发誓道：“谁拥有这把梳子，我就要娶她为妻。”王子就开始四处询问。一位老妇人告诉他，这把梳子的主人就是希琳公主。于是，年轻人出发去寻找西琳。

在东方有一位国王，他只有一个儿子，名叫法尔哈德。法尔哈德常常忧郁而悲伤。有一天，国王带着儿子和四十个小伙子一起出去散步。法尔哈德发现一位石匠。他迷上了这门手艺，就开始潜心学习。即使他的父亲万般阻止，他也坚持不懈。过了很久，有一天，法尔哈德进入了他父亲的

藏宝室。他打开一口石箱，发现一面看世界的魔镜。他在镜子里先看到了古丽卡卡仙女。然后，他看到了住在西方正在荡秋千的希琳公主。他对希琳一见钟情，激动得晕倒了。这时，他手中的魔镜也掉在地上摔碎了。法尔哈德决定出发去寻找希琳。

在路上，他遇到一个年轻人正在树荫下睡觉。有一条蛇从树上爬下来，正要毒死这个年轻人。法尔哈德跑过去，用匕首斩杀了这条蛇。年轻人惊醒了，并告诉法尔哈德：“刚刚在我的梦中，有一个人告诉我说，起来，你的朋友来了。”他感谢法尔哈德阻止了一场悲剧的发生，并拯救了他。他们成为了终生的朋友。

他们一路相伴，到达了希琳公主的国家。法尔哈德看到山脚下聚集了数千名士兵，他从牧羊人那里得知这些士兵是谁的。这时，希琳带着四十个侍女来了。风儿掀起了希琳的面纱。法尔哈德看到心上人，激动得晕倒了。他的朋友把他叫醒了。然而，希琳和四十个侍女却已经离开了。法尔哈德询问希琳去了哪里。他的朋友说：“希琳说，她要嫁给能够开山引水的人。”听到这句话，法尔哈德充满了斗志，开始搬石头。最后，他终于完成了这个要求，并引来了水。他的朋友在山的一侧画了希琳的画像，在另一侧画了法尔哈德的画像。

有一天，希琳带着四十位侍女来到山下参观法尔哈德修建的水池。她看到这里是一片硕果累累的繁荣景象，看到法尔哈德灌溉沙漠戈壁，把一片荒原变成了花园绿洲，希琳也爱上了他。她把法尔哈德带到她的宫殿，并设宴款待。

从此，他们实现了心愿，过上了幸福的生活。

## Sabr tagi — sariq oltin

O'tgan zamonlarda Boqijon nomli bir yigit yashagan ekan. Uning ota-onasi o'lib, ulardan bir tanobcha yer qolgan ekan. Boqijon shu yerda kechakunduz ishlab, olgan hosili bilan o'z ro'zg'orini tebratar ekan. Uning ekinlari ayni pishar chog'ida boylar, sudxo'rilar suvni o'z yerlariga burib olib qo'yishar, ekinlari suvsizlikdan qovjirab qolar ekan. Kambag'al yigit borib mirob, oqsoqollardan suv talab qilsa, ular qo'liga qamchi olib, do'q qilib haydab yuborar ekan. Shunday azob-uqubatda qorni oshga, usti kiyimga yolchimay zo'rg'a hayot kechirar ekan. Biroq Boqijon katta yigitcha bo'lib qolgan, u endi uylanishni, oila qurishni orzu qilib yashar ekan. Boqijon yashagan qishloqda bir kambag'al dehqonning Guloyim nomli qizi bor ekan. Guloyimning qaddiqomati kelishgan, qosh-ko'zi qora, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, uning oyday husn-jamoli o'ziga munosib bir qiz ekan. Boqijon Guloyimni suvga chiqqanida ko'rib, sevib qolgan ekan. Guloyim ham ro'molchasini boshiga yelvagay tashlab, Boqijonga bir qiyo boqib, miyig'ida kulib qo'ygan ekan. Boqijon Guloyimga bo'lган muhabbatini kimga aytishini bilmay, ko'п tashvish tortib yurar ekan. Boqijon ahyon-ahyonda suvga chiqqanida qizni ko'rib, salomlashib, hol-ahvol so'rashib turar ekan.

Bir kuni Boqijon xolasini o'z uyiga chaqiribdi. Unga o'z istagini ayolibdi. Xolasi Guloyimning uyiga sovchilikka borishga rozi bo'libdi. Bir kuni Boqijonning xolasi Guloyimlarnikiga sovchi bo'lib boribdi. Guloyimning onasi qizining yurish-turishidan xabardor ekan. Hatto Guloyim Boqijonni

yoqtirib qolganini onasiga aytgan ekan. Biroq Guloyimning otasi bu ishga qarshilik ko‘rsatibdi. Otasi Guloyimga kelgan sovchilarning birini o‘poq, birini so‘poq deb, rozi bo‘lmay qaytarib yuboribdi. Lekin Boqijonning xolasi sovchilikka boraveribdi, boraveribdi. Nihoyat, Guloyimning ota-onasi rozi bo‘lishibdi. Qishloqda o‘ziga yarasha kichkinagina to‘y qilishibdi va Boqijon bilan Guloyim birga hayot kechira boshlashibdi. Oradan bir necha yillar o‘tibdi. Boqijon bilan Guloyim mehnat qilib, o‘z bog‘-rog‘larida ishlab, olgan hosillari bilan o‘z ro‘zg‘orlarini tebratishar ekan.

Bir kuni Boqijon qattiq qasal bo‘lib, yotib qolibdi. Butun uy-ro‘zg‘or, yer ishlari — dehqonchilik faqat birligina Guloyim boshiga tushibdi. Bechora Guloyim erta tong-saharda turib to xuftongacha tinmay mehnat qilar ekan. U Boqijonni yaxshilab davolash, ro‘zg‘orga qarash, ekinlarni sug‘orish, kir yuvish, hamma yoqni supurish-sidirish kabi ishlarni ham bajarar, hech tinmas ekan. Boqijonning kasaliga hech qanday tabibning dorisi kor qilmabdi. Uning yarasi zo‘rayib, o‘zi cho‘pday ozib, hech qimirlamay qolibdi. Guloyim ham bu dard-u g‘am, tashvishdan oriqlab, nima qilishini bilmay, kimdan yordam so‘rashga hayron bo‘lib yuraveribdi. Guloyimning ota-onasi nihoyat kambag‘al bo‘lgani uchun bularga hech qanday yordam ko‘rsata olishmas ekan. Guloyim Boqijonning kasalini tuzatishga ko‘p urinibdi, natija chiqmabdi. U boylarning uyiga borib, ularning kirini yuvib, xizmatlarini bajarib, topgan non va oziq-ovqatlari bilan Boqijonni boqib yuraveribdi. Endi qishloqda duv-duv gap tarqalibdi. Boqijonga yomon yara chiqqan mish, odamlarga yuqarmish. Uni bu qishloqdan boshqa joyga, chetga chiqarib yuborish zarur emish. Bu gapni qishloq oqsoqoli, boylar va ellikboshilar tarqatishibdi. Bu gaplar Guloyimning qulog‘iga ham yetibdi. U Boqijonga bildirmay rosa yig‘labdi. Kunlardan bir kuni eshikni birov qattiq taqillatibdi. Guloyim chiqib:

— Kimsiz, nima uchun keldingiz? — deb so‘rabdi, Ular esa qishloq oqsoqoli, bir ikkita og‘zi katta korchalonlar ekan. Ular Guloyimga:

— Senlar shu kundan boshlab qishloqni tashlab chiqib ketishlaring shart. Chunki ering yuqumli kasal bilan og‘rigan, bir necha yildan beri yotibdi. Bizlarga ham yuqadi. Shuning uchun shu bugundan qolmay qishloqni tashlab ketinglar, boshqa gap yo‘q! Agarda ketmasalaring, o‘zimiz ot-arava olib kelib sizlarni dala-dashtga chiqarib tashlaymiz, — deb do‘q urishibdi. Bechora Guloyim: «Endi bizlarga bu azob ham bormidi», — deb ho‘ngrab yig‘lab, Boqijonning yoniga borib nima deyishini bilmay:

— Bugun biz o‘z qishlog‘imizdan, uyimizdan boshqa joyga ketishimiz kerak ekan. Qishloq kattalari kelib tayinlab ketishdi, — debdi. Boqijon yotgan joyida yig‘lab, ne qilarini bilmay, hech qanday iloj topolmay:

— Xo‘sh, bu yerdan qayerga boramiz va qanday yashaymiz? — deb Guloyimdan so‘rabdi. Guloyim:

— Bir ilojini toparmiz, peshonamizga nima yozilgan bo‘lsa, shuni ko‘raveramiz-da, — debdi. O‘sha kuni tunda Guloyim Boqijonni yuvintiribdi, so‘ngra uni opichlab qishloqdan chiqib ketibdi. U Boqijonni ko‘tara-ko‘tara oxiri bir dasht-biyobonga kelib, bir daraxt tagida dam olishga o‘tiribdi. U nihoyatda charchagan ekan, uqlab qolibdi. Ertalab turib yuz-qo‘lini yuvib, Boqijonni ham yuvintirib, bitta non bilan nonushta qilishibdi. Ular mana shu daraxt tagini makon etib, chodir tikib olishibdi. Boqijon chodir ichida yotar, Guloyim esa shaharga, atrof-qishloqlarga ish axtarib ketar ekan. Har kimning ishini bajarib, topgan-tutganini Boqijonga keltirar ekan.

Bir kuni Guloyim ish topolmay, yeyarga non-ovqati bo‘lmay, nima qilishini bilmay, hayron bo‘lib qaytar ekan, yo‘lda unga bir savdogar uchrabdi. U savdogar ayol Guloyimga:

— Sochingizni menga sotmaysizmi? — debdi. Guloyimning sochi yigirma besh jamalak bo‘lib, orqa tovoniga tushar ekan. U noiloj besh jamalagini sotishga rozi bo‘libdi. Guloyim uyga pulga non va boshqa oziq-ovqatlar olib, Boqijonning yoniga kelibdi. Boqijon bu voqeadan bexabar qolibdi. Guloyim

ham bu sirni yashiribdi.

Bir kuni Boqijon qarasa, Guloyimning sochi bir oz kamayganga o‘xshabdi.

Shunda Guloyimdan so‘rabdi. Guloyim esa:

— O‘zi to‘kilib ketyapti, — debdi. Shunda Boqijon:

— Siz meni deb aziz joningizni qiy nab, shu ahvolga keldingiz. Endi men bir tuzalmas baloga yo‘liqdim. Siz yosh umringizni xazon qilmang, ota-onangiz qoshiga boring, men umrim tugaguncha shu joyda yashab, tuzalsam bir kunimni ko‘rarman, — desa, Guloyim yig‘lab:

— Siz meni kim deb o‘ylaysiz? Men sizni shu ahvolda tashlab ketganimdan ko‘ra, o‘lganim ming marta yaxshiroq emasmi? Men sizni tuzatmay, hayotimizni tiklamay bu yerdan, qoshingizdan jilmayman, siz bilan umrimning oxirigacha birgaman. Unday gaplarni aytib, o‘zingizni va meni qynamang. Tanimda jonim bor ekan, sizning xizmattingizga doimo tayyorman, — debdi.

Oradan bir necha oylar o‘tgach, Guloyim ish axtarib ketganida, Boqijon qoshiga bir mo‘ysafid kelibdi. Boqijon cholga o‘z boshidan kechgan kunlarni so‘zlab beribdi. Nihoyat, mana shu dardga mubtalo bo‘lganini, tuzala olmay yotganini, shu kasal tufayli o‘z vatanidan judo bo‘lganlarini aytib beribdi. Boqijonning so‘zlariga quloq solgan chol unga shunday debdi:

— O‘g‘lim ko‘p qayg‘urma, mana shu yo‘l bilan borganingda, taxminan bundan uch to‘rt tosh uzoqlikda, bir tog‘ bag‘rida katta chinor bor. Chinor tagidan bir chashma suvi qaynab chiqib turibdi. Suvi issiq. Agarda borishga ilojing bo‘lsa, tunda borib, o‘sha buloqqa tushib cho‘milib ko‘r-chi, zora shifo topsang.

Guloyim kelib qarasa, erining chehrasi ochiq.

— Ha, o‘zi nima gap, bugun xursand ko‘rinasiz? — deb so‘rabdi Guloyim. Shunda Boqijon mo‘ysafid bilan bo‘lgan suhbatini aytibdi. Guloyim Boqijonni ko‘tarib chashma tomon yo‘l olibdi. Qidira-qidira chashmani topishibdi. Boqijonni chashma suviga cho‘miltiribdi. Ular o‘sha chashmaga yaqinroq joyni

makon qilishibdi. Oradan bir-ikki oy o‘tgach, haligi chashma suvidan Boqijon shifo topa boshlabdi, tuzala beribdi. Nihoyat, Boqijon, oyoqqa turadigan, keyin yuradigan, nihoyat, mehnatga yaroqli holga kelibdi. Guloyim ikkisi o‘sha joydan quruq yer tanlab olib, ikkisi mehnat qilib, suv chiqarib uy-joy qurishibdi. Hovlining atrofini bog“-rog“ qilishibdi. U joyda bir qo‘rg‘on paydo bo‘libdi. Hovli, bog‘lariga turli mevalar ekip, gullar o‘tqazishibdi. Boshqa odamlar ham u yerga ko‘chib kelib, uy-joy qurib yashay boshlashibdi. U yerning xalqi yig‘ilib, bu qo‘rg‘onga «Gulobod» deb nom qo‘yibdi. Boqijon Guloyimning ota-onasini chaqirtiribdi. Ular Boqijon bilan Guloyimning hayotini ko‘rib nihoyatda sevinishibdi. Ular bola-chaqali, uvali-juvali bo‘lib, oshlarini oshab, yosolarini yashab, murod-maqsadlariga yetishibdi.

## 耐心是金

从前，有一个名叫巴克江的小伙子。他的父母都去世了，留下了一小块土地。巴克江在地里夜以继日地工作以维持生计。在他的庄稼快要成熟的时候，巴依老爷、放高利贷的债主把水引到他们自己的土地上，巴克江的庄稼就因缺水而枯萎。当这个穷小伙子去向水官和长老们要水时，他们拿着鞭子把他赶走。他无衣无食，艰难地生活。然而，巴克江已经长大成人，他向往着结婚成家。在巴克江居住的村庄里，一位贫穷的农民有一个女儿名叫古丽阿伊姆。古丽阿伊姆身材高挑，有着浓黑的眉毛和眼睛，如同日月一般好看的嘴巴和眼睛，她的容颜就像月亮一样美丽。巴克江见到古丽阿伊姆打水时，就爱上了她。古丽阿伊姆把头巾一直披到肩上，对巴克江轻轻一瞥，嘴角露出了一丝微笑。巴克江不知该对谁诉说自己对古丽阿伊姆的爱，他痛苦不堪。巴克江时不时遇见出来打水的姑娘，就过去跟她打招呼，嘘寒问暖。

有一天，巴克江把姨妈叫到家里，诉说了自己的愿望。姨妈同意去古丽阿伊姆家提亲。巴克江的姨妈就去古丽阿伊姆家做媒了。古丽阿伊姆的母亲知道女儿的心思。其实，古丽阿伊姆告诉了母亲她喜欢巴克江。可是，古丽阿伊姆的父亲反对这门亲事。他的父亲嫌弃那些媒人一个是歪瓜，一个是裂枣，都拒绝了。但是，巴克江的姨妈不放弃，一次又一次地说媒。最终，古丽阿伊姆的父母同意了。他们在村里举办了一场适合自己条件的小型婚礼，巴克江和古丽阿伊姆就开始生活在一起。就这样过了几年，巴克江和古丽阿伊姆辛勤劳动，靠田地果园的收获维持生活。

有一天，巴克江得了重病，倒下了。所有的家务、地里的农活都落在

了古丽阿伊姆一个人的肩上。可怜的古丽阿伊姆从早到晚不知疲倦地劳作。她要照顾巴克江，照顾家庭，浇灌庄稼，洗衣扫地，一刻也不歇息。任何郎中的药都治不了巴克江的病。他身上的脓疮越来越大，身体却瘦得像一根棍子，根本无法动弹。古丽阿伊姆因为这些痛苦和担忧而日渐消瘦，不知所措，也不知道该向谁求助。古丽阿伊姆的父母很穷，也无法帮助他们。古丽阿伊姆尝试了很多办法给巴克江治病，都没有用。她到巴依家里，给他们洗衣服，给他们打工，用赚来的食物照顾巴克江。这时，村子里传出闲言碎语。大家说，巴克江的脓疮很严重，会传染，必须把他从这个村子赶出去。其实，这些话是村里的长老、巴依、百夫长们传播的。这话也传到了古丽阿伊姆的耳中。她背着巴克江，伤心地大哭了一场。有一天，有人使劲敲门。

古丽阿伊姆问道：“你们是谁啊，来干什么？”

原来是村里的长老，还有一两个碎嘴的百事通。他们恶狠狠地对古丽阿伊姆说：“你们今天就必须离开村子！你丈夫得了传染病，听说已经躺了好几年了。我们也会被传染。所以，今天就离开村子吧，没什么好说的！如果你们不走，我们就会带着马车来，把你拉到野外去！”可怜的古丽阿伊姆号啕大哭，道：“我们的痛苦还不够受的吗？”她走向巴克江，不知道该怎么告诉他。

她说：“村里的长老们说了，我们必须今天离开村子，离开我们的家。”巴克江躺在那里，哭了，不知道该怎么办，也找不到任何办法。

他问古丽阿伊姆：“那么，我们去哪儿，我们怎么生活啊？”

古丽阿伊姆说：“我们总会找到办法，我们命中注定怎样，就怎样吧。”当天晚上，古丽阿伊姆给巴克江洗了澡，然后背着他离开了村庄。她背着巴克江走啊走，来到一片原野，找到一棵树，坐下休息。她太累了，就睡着了。第二天一大早，她醒来洗了脸和手，给巴克江洗了澡，然后吃了一个馕作早餐。他们就在这棵树下落脚，搭了一个帐篷。巴克江躺在帐篷里，而古丽阿伊姆去往周边的城市和村庄找活儿干。她什么活儿都干，把获得的报酬都带给巴克江。

有一天，古丽阿伊姆实在找不到活儿，没有吃的，不知所措地准备回家。在路上，她遇到了一位女商人。女商人问古丽阿伊姆：“你能把头发卖给我吗？”古丽阿伊姆的头发编了二十五根辫子，垂在背上。无奈之下，她同意卖掉其中的五根辫子。古丽阿伊姆用卖掉的钱买了馕和其他食物，回到了巴克江身边。巴克江不知道这件事。古丽阿伊姆也隐瞒了这个秘密。

有一天，巴克江一看，古丽阿伊姆的头发好像变少了。然后，他就问古丽阿伊姆。古丽阿伊姆若无其事地说：“头发掉了。”

巴克江心疼地说：“都是为了我，你这珍贵的生命受尽了折磨，落到了现在的境地。我也落入了无药可救的灾难中。不要浪费你年轻的生命，回到你父母的身边吧，我留在这个地方，直到生命的最后一刻，如果我好了，活一天，算一天吧。”古丽阿伊姆哭着说道：“你以为我是什么样的人？与其把你扔下，不如让我死去千百次，不是更好吗？治不好你的病，过不好我们的日子，我是不会离开这里，离开你的！我会和你在一起，直到我生命的尽头。不要说这样的话折磨你自己和我。只要我还有一口气，我就会侍候你。”

过了几个月，古丽阿伊姆又出去找活儿干，有一个老人来到了巴克江身边。巴克江向老人讲述了他的遭遇。他告诉老人，怎么患了这种病，至今无法治愈，因为这种病而离开自己家园的经历。

老人听了巴克江的话，对他说：“孩子，你别太伤心，你沿着这条路走，大约在三四塔石<sup>①</sup>远的地方，半山腰有一棵大梧桐树。梧桐树下有一股泉水涌出。水是热的。如果你有办法去，最好晚上去，用泉水洗澡试试，你会好起来。”

古丽阿伊姆回家时，看到丈夫非常高兴的样子。

“你怎么了，今天看起来很开心呀？”古丽阿伊姆问道。

这时，巴克江讲述了他与老人的谈话。古丽阿伊姆立刻背起巴克江，

---

<sup>①</sup> 塔石，乌兹别克语tosh的音译，表示距离的测量单位，1塔石约为8千米。

朝着泉水那边出发了。找啊找，他们终于找到了泉水。巴克江在泉水里沐浴。他们在那泉水附近找了个落脚的地方。过了一两个月，巴克江开始好起来了，慢慢被泉水治愈了。终于，巴克江能够站起来，然后能够走路了，最终能够劳动了。他们俩在那里选了一块空地，努力劳作，汲水，建造了院落。在院子的周围修建了花园果园。于是，那里出现了一座城堡。院子和花园里种植了各种各样的水果和花草。其他人也纷纷搬到那里，建造庭院，开始生活。那个地方的人们聚集在一起，把这座城堡称为“古丽兰堡<sup>①</sup>”。巴克江把古丽阿伊姆的父母也接过来了。父母看到巴克江和古丽阿伊姆的生活非常高兴。他们有了子女，有了兄弟姐妹，大家丰衣足食，过着幸福的生活。

---

① 古丽兰堡，乌兹别克语gulobod的音译，gul表示花，obod表示繁荣，此处为地名。

## Nima eksang, shuni o‘rasan

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir chol yashagan ekan. Uning xotini vafot qilgan, chol balog‘atga yetgan o‘g‘li bilan bir o‘zi qolgan ekan.

Otasi o‘g‘lini ikki yildan keyin uylantiribdi. Kelini ishyoqmas, qo‘pol ekan. U har kuni arzimagan narsalardan janjal ko‘tarar, cholning ahvoldidan xabar olmas ekan.

— Nima, meni otangizga cho‘rilikka olganmidingiz? Kiyimlarini yuvsam, hali u qilsam, hali bu qilsam... Mening jonim o‘nta emas-ku, axir? — derkan har kuni ming‘illab.

Chol bechora shol bo‘lib qolgan, erta-yu kech bir joyda qimirlamasdan yotar ekan. O‘g‘li oxiri toqati-toq bo‘lib, xotiniga:

— Xo‘sh, maqsading nima, nima qilishim kerak? — debdi.

— Otangizni bu yerdan yo‘qoting. Iloji bo‘lsa, gadoy topmas biror joyga tashlab keling! — debdi xotini.

O‘g‘il “shunday qilsam, bu la’natining javrashidan qutulaman shekilli,” deb o‘ylab, otasini opichlab jo‘nabdi. Otasi ham, o‘g‘li ham bir-biri bilan urishganday jim ketayotgan mish. Tevarak-atrof jimjit, faqat chigirkalarning chirillashi-yu, oyoq tagidagi xaslarning shitirlab sinishidan boshqa tovush eshitilmas emish.

O‘g‘il yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi, oxiri tog‘ cho‘qqisiga yetib boribdi. Tog‘ning bir tomoni jarlik ekan. U o‘zicha, «Agar shu jarlikka

tashlab yuborsam, bu noinsoflik bo‘ladi. Yaxshisi, ana u ko‘rinib turgan toshning ustiga o‘tqazib qo‘yay-da, o‘zim ketib qolay. Keyin nima bo‘lsa bo‘lar, peshonasida borini ko‘rar», deb o‘ylabdi.

— Otajon, — debdi cholni tosh ustiga o‘tqazar ekan, — siz shu yerda birpas o‘tirib dam olib turing, men hozir kelaman.

Chol kulib qo‘yibdi. Bundan ajablangan o‘g‘li to‘xtab:

— Otajon, nimaga kulyapsiz? — deb so‘rabdi.

— Yo‘q, o‘zim shunday, ketaver, yo‘lingdan qolma, — deb javob beribdi otasi va yana kulib qo‘yibdi.

O‘g‘li, “yo‘q, aytasiz” deb, oyog‘ini tirab turib olgandan keyin, otasi aytishga majbur bo‘libdi:

— Meni bu yerga olib kelishingdan maqsad — tashlab ketish. Buni bilib turibman. Xotining shunga seni majbur qilganini ham bilaman. Lekin men xafa emasman. Chunki buni men ham o‘z boshimdan kechirganman. Men ham otamni oyingning gapiga kirib, xuddi shu xarsang tosh ustiga tashlab ketgan edim. Qaytar dunyo ekan. Xo‘p endi, o‘g‘lim, xayr, baxtli bo‘l, — deb so‘zini tugatibdi chol.

O‘g‘li otasidan bu gapni eshitib: “Nima eksang, shuni o’rasan”, degan naqlni eslabdi. U nogiron otasini xo‘rlaganiga o‘kinib, cholni opichlab uyiga qaytarib olib ketibdi va o‘zi parvarishlay boshlabdi.

## 种瓜得瓜，种豆得豆

很久很久以前，有一位老人，他的妻子去世了，只剩下他和已经成年的儿子一起生活。

两年后，他给儿子办了婚事。可是，儿媳妇非常懒惰，粗鲁无礼。她每天都会为一些鸡毛蒜皮的小事吵架，也不照顾老人。

她每天都要不停地唠叨，说：“怎么，你把我当成你父亲的奴仆了吗？让我洗他的衣服，一会儿让我干这，一会儿让我干那……我也没有十条命……”

可怜的老人瘫痪了，从早到晚一动不动地躺着。儿子终于不耐烦了，对媳妇说：“那你说，你到底想怎么样，我该怎么办？”

他的媳妇回答道：“让你父亲从这里消失。最好，把他扔到一个乞丐都找不到的地方！”

儿子心想，只有这样做，才能摆脱这个女人的咒骂。于是，他背着父亲出发了。父子俩像吵过架一样静静地走着。四周一片寂静，只有蚱蜢的鸣叫声和脚下青草的嘎吱声。

儿子走啊走，走了很多路，终于到了山顶。山的一侧是悬崖。他心想：如果把他扔下这悬崖，我就太没有良心了。还是让他坐在那块看得见的石头上，我就离开。无论他发生什么，就看他的造化吧。

他把老人放在石头上，说到：“父亲，您坐在这里休息一会儿，我很快就回来啊。”

老人笑了。儿子惊讶地停了下来，问：“父亲，你笑什么？”

“没事，我就是这样，你走吧。”父亲回答道，又笑了。

儿子坚持道：“不，您说吧！”他站在那里。父亲不得不回答道：“你带我来这里的目的就是为了扔下我。我知道。我也知道，是你媳妇逼你这么做的。但是我并不难过。因为我自己也经历过这样的事。我听你母亲的话，也把父亲留在了同一块石头上。世界就是这样轮回的。好了，儿子，再见，祝你幸福。”

儿子听到这些话，想起了那句俗语：“种瓜得瓜，种豆得豆。”他悔恨自己亏待了残疾的父亲，于是背起父亲回家，从此好好照顾他。